

جدید

2025-yil 13-iyun
№ 24(76)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

FAXR

DUNYO DARVOZASI OCHILDI BIZGA

Gapning sirasini aytadigan bo'lsak, mana endi mamlakatimiz futboli dunyoning katta sahnasiga chiqdi. Dastlab Timur Kapadze boshchiligidagi yoshlar terma jamoasi jahon olimpiadasida qatnashdi. Islom Ismoilovning 17 yoshgacha bo'lgan shogirdlari Osiyo chempionatidagi barcha raqiblarini dog'da qoldirib chempionlikni tantana qildi. Ular finalda bosh hakamning g'alati qarorlariga qaramasdan raqibi – Saudiya Arabistoni (championat mezbonlari) futbolchilarini “ajriq timalashga majbur” qilishdi.

Shu yilning 5-iyunida esa milliy terma jamoamiz azaliy orzusiga erishib, ilk bor jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Ushbu xursandchilik bizni futbol har qanday millatni, har qanday mamlakat va xalqni birlashtiradi, degan fikrning naqadar oydin va rost ekanligiga yana bir bor ishontirdi. Qirg'iz, qozoq, tojik, turkman va ozarbayjon birodarlarimiz qay jamoaga ishqiboz ekanligini ochiq namoyish etdilar.

1991-yil mamlakatimiz mustaqillikka erishgan bo'lsa, terma jamoamizning FIFAga a'zo bo'lishi 1994-yilda amalga oshgan. FIFA reglamentiga ko'ra, biz 1994-yildan boshlab xalqaro musobaqalarda rasman qatnashish huquqiga ega bo'lganmiz. Ilk bor 1998-yilgi jahon chempionatining saralash musobaqasida qatnashganmiz. Bu davr mobaynida terma jamoamizning Osiyo o'yinlarida (1994-yilda) g'olib bo'lganligini hisobga olmaganda jahon chempionati saralash uchrashuvlarining ba'zi birlarida mundialga bir qadam qolganda qoqilganini yoki imkoniyatni boy berib qo'rganini juda yaxshi eslaymiz. Bir g'alaba, bir ochko va bittagina gol yetmay qolganidan rosa xunob bo'lganmiz.



Yaqinda terma jamoamiz a'zosi Jaloliddin Masharipovning ijtimoiy tarmoqda e'lon qilingan fikrlarini o'qib qoldim. U asosan bosh murabbiylar qo'nimsizligidan taajjubda bo'lganligini bildirgan. Bu ayni haqiqat. Keyingi 30 yil ichida terma jamoamizda 24 bor bosh murabbiy almastirilgan. Ivankov, Silva, Borisov, Sadirin, Sarkisyan, Salkov, Ostroushko, Gyode, Xoughton, Nepomnyashiy, Inilyeyev, Abramov, Babayan, Kuper, Katanetslar kelib-ketgan bo'lsa, Akramov, Ibrohimov, Mirsodiqov, Rahimov, Haydarov, Qosimov singari olti nafar o'zbek mutaxassisi ham terma jamoamizni boshqargan. Ushbu murabbiylar orasida faqat Mirjalol Qosimov bilan Xoughton jamoamizni saralash musobaqalarida mundialga juda yaqin keltirishgan. Saralash uchrashuvlaridagi eng yomon natijalar esa Mirsodiqov, Salkov, Ostroushko,

Babayan murabbiylik qilgan davrlarga to'g'ri keladi.

2014-yil bo'lib o'tgan jahon chempionatining saralash musobaqalarida qatnashayotgan terma jamoamiz Mirjalol Qosimovning qo'lga o'tgach, ketma-ket g'alabalarga erishdi. Eng so'nggi hal qiluvchi o'yin Seulda Janubiy Koreya terma jamoasiga qarshi o'tkazilishi lozim edi. Jamoa a'zolari yaxshi tayyorgarlik ko'rish va ob-havo muhiti hamda kutilmagan sharoitlarga moslashish uchun bir hafta oldin safarga otlandi. Safar davomida Xitoyda to'xtash, ko'ngildagidek mashg'ulot va bitta o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazish ham belgilangan edi. Mashg'ulotlar uchun rejalashtirilgan sifatli futbol maydonlarining narxi qimmatligi sabab futbolchilarimiz talabga javob bermaydigan stadionda kunlik mashg'ulotlarni o'tkazishga majbur bo'lishgan. Buning ustiga ob-

havo sharoiti yomonlashganligi uchun Xitoydan Janubiy Koreyaga uchoqlar parvozi haddan ziyod qisqartirilib yuborilgan. Natijada terma jamoamiz a'zolari Xitoydan Vladivostokka, u yerdan Seulga uchishga majbur bo'lishgan. Ushbu muammolar tufayli yigitlarimiz muhim uchrashuvga bir kun qolganda manzilga charchab-horib yetib kelgan. Tabiiyki, vaqt ziqligi bois birorta ham jiddiy mashg'ulot o'tkazmasdan maydonga tushib, asosiy uchrashuvni mezbongarga boy berishgan edi. Kim aybdor, futbolchilarni yoki tashkilotchilar? Eski gap, eski muammo.

Terma jamoamiz tarixida saralash uchrashuvlaridan oldin bunday tabiiy va notabiiy to'siqlar juda ko'p bo'lgan.

(Davomi 8-sahifada.) ➤

NUQTAYI NAZAR



ULUG'BEK YULDUZLARI

Bugungi globallashuv va tezkor innovatsiyalar davrida har bir davlatning taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil bu – yosh avlodning bilim, tafakkur, tashabbus va mas'uliyat darajasidir. Yoshlarning kuch-g'ayratiga ishonch bildirish, ularning har bir intilish-harakatlarini rag'batlantirish lozim.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ma'rifiy siyosatda “Bugungi yoshlar – ertangi taraqqiyotning, milliy yuksalishning poydevoridir” tarzidagi ustuvor dasturning amalda qo'llanilayotgani hamda hayotiy haqiqatga urg'u berilayotgani biz kabi mo'ysafidlarni mamnun qiladi, albatta.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati har jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Yangi qonunchilik hujjatlari, dasturlar, jamg'arma va institutlar orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi, ta'limga, fan va texnologiyalarga bo'lgan intilishi har qachongidan ham kengroq qo'llab-quvvatlanmoqda. Darvoqe, o'zim yoshlar bilan qalban birgaman, ularga imkon boricha maslahatlar berib, yo'l-yo'riq ko'rsataman. Shu e'tibordan alohida ahamiyatga ega bo'lgan institutlardan biri – “Ulug'bek” jamg'armasidir. Ulug' alloma ajdodimiz nomini olgan bu jamg'armamiz ilmiy salohiyatli, izlanuvchan va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlab keladi. Jamg'armadan moddiy va ma'naviy quvvat olgan yoshlarimiz mamlakatimizning turli jabhalarida xizmat qilayotganidan, Vatan taraqqiyoti yo'lida fidoyilarcha ishlayotganidan quvonaman, to'g'risi. Gohida ular o'z ishlaridan mamnunligi bois bizning dargohga kelishadi, alohida tashakkurlarini aytishadi ham. Shunda “Ulug'bek” jamg'armasi o'z oldiga qo'ygan ulkan missiyani to'laqonli bajarayotganini yurak-yurakdan sezib turaman.

Jamg'armaning asosiy maqsadi – iqtidorli, salohiyatli, vatanparvar yoshlarni har tomonlama rag'batlantirish, ularning bilim va tajriba orttirishiga zarur sharoit yaratish, ilmiy safarlar va tajirovkalarga yuborish, xorijiy tillarni o'rganish va nufuzli xalqaro ilmiy muhitga integratsiyalashish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Buning samarasi ijtimoiy-ma'rifiy hayotda aniq ko'rinayotir.

Keyingi yillarda jamg'arma faoliyati sezilarli darajada faollashib, ko'plab yangi yo'nalishlar ochildi.

(Davomi 2-sahifada.) ➤

GURUNG

AYOL MA'RIFATI

hayot-mamot masalasidir



Ma'rifat – aql-zakovat, axloqiy qarashlar, ijtimoiy mas'uliyat va tarbiya uyg'unligidir. Shu ma'noda, ma'rifatli ayol deganda faqat o'qigan emas, uqqan ayol ham tushuniladi. Zero, ma'rifatli ayolgina oilada sog'lom muhitni shakllantiradi, farzandi orqali jamiyat kelajagiga yuksak ta'sir ko'rsata oladi. Xalqimizda “Bir qizni to'g'ri tarbiyalasang, bir oqil avlodni tarbiyalagan bo'lasan” degan hikmat bejiz aytilgan emas. Uning zaminida ayol shaxsi, saviyasi, sajiyasining tarbiyaga nechog'li ta'siri anglashiladi.

Boshqacha aytgach, ma'rifatli ayol ma'rifatli millat demakdir.

Ayni ma'rifatli ayol timsolida sog'lom oila muhiti va jamiyat taraqqiyoti o'rtasida chambarchas bog'liqliklar, tarbiya va tibbiyot sohasidagi islohotlar yuzasidan Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari, tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi Elmira Bositxonova bilan suhbatlashdik.

(Davomi 2-sahifada.) ➤

YOZUVCHILAR UYUSHMASI YO'LLANMASI BILAN



“MEN HAM KO'PRIK QURAJAKMAN SHE'RDAN YONIB...”

Toshkent – Andijon poyezdida yo'lga tushdim. Muhtasham temir tulporda odam ham jisman, ham ruhan orom olib ketadi. Ayniqsa, borliqning go'zal manzaralari ko'z oldingda jonli gavdalanib tursa, osmonga bo'yab turgan ulug' tog'lar bor viqori, bo'yi basti, salobati bilan ko'ksingga ko'chib o'tadi.

Qoyalar oralab borar ekanman, qalbindagi hislar ikki hissa ortadi.

Sababi, bir kun avval qirg'iz xalqining atoqli shoiri Jolon Mamitovning o'zim o'zbek tiliga o'g'irgan “Tog'lar” she'rini o'qib, kichik video tayyorlagandim:

...Ko'kda suzgan ulug' tog'lar,
sizlar hatto,

Yemirilib borayotganga
o'xshaysizlar...

Jolon og'aning she'ri mana shu satrlar bilan boshlanib, aynan shu misralar bilan nihoyalandi.

(Davomi 6-sahifada.) ➤

MA'NAVYI TARBIYA

INSON QADRI VA JAMIYAT: DIALEKTIK BIRLIK ZARURATI

“Qadr” – arabcha so'z. U lug'aviy jihatdan “miqdor”, “o'lchov”, “daraja”, “martaba”, “taqdir”, “qismat” ma'nolarini anglatadi. 5 jildli “O'zbek tilining izohli lug'ati”da bu so'zning istilohiy ma'nosi mana bunday izohlangan: “1. Jamiyatda, kishilar o'rtasida tutgan o'rin, o'zga(lar) tomonidan bo'lgan hurmat, e'tibor. 2. Hayotda tutgan o'rin; ahamiyat, muhimlik holati”. Bu o'zak asosida tilimizda yana “qaddron”, “qaddronlashmoq”, “qaddronlik”, “qadriyat”, “qadrlamoq”, “qadrlil”, “qadrsiz”, “qadrsizlanmoq”, “qadrshunos”, “qadrshunoslik” so'zlari yasaladi.

“Qadr” tilimizdagi “baho”ga yaqin keladi. Har kim jamiyatda munosib baho olishni, o'z o'rni, obro'-e'tiboriga ega bo'lishni istaydi. Shuning uchun inson qadri yuksak bo'lgan jamiyatlardagina taraqqiyot yuz beradi.

(Davomi 5-sahifada.) ➤




Boshlanishi 1-sahifada.

Jumladan, magistratura va dok-torantura bosqichidagi yoshlar uchun xorijiy stajirovkalar, xalqaro konferensiyalarga tashriflar, nufuzli ilmiy jurnallarda maqola chop etish bo'yicha grantlar – hammasi yoshlarning zamonaviy ilm-fan bilan uyg'unlashuviga olib kelmoqda. Zotan, ularning dunyo ilm ahli bilan tanishuvi, taniqli olimlardan ta'lim olishi va hamkorligi qadim ajdodlari ulkan allomalar bo'lgan bilimlari o'g'il-qizlarimizning dovrug'ini dunyoga tanitadi.

Jamg'arma tomonidan tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar – aynan yoshlar tafakkurini boyitish, ularni chuqur ilmiy-madaniy muloqot maydoniga jalb etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglatish maqsadida yo'lga qo'yilgan loyihalarimizdan biri.

Ma'ruzalar nafaqat poytaxtdagi oliy ta'lim muassasalarida, balki viloyat va tumanlardagi yoshlar markazlari, maktablar, kutubxonalar va mahallalarda ham o'tkazilmoqda. Har bir tadbir yoshlar bilan yuzma-yuz, samimiy va ochiq muloqotga asoslanishi bilan e'tiborga molik.

Mavzular doirasi esa nihoyatda keng: tarix, falsafa, zamonaviy texnologiyalar, adabiyot, psixologiya, ijtimoiy muammolar, ekologiya, milliy qadriyatlar, tanqidiy fikrlash, axborot xurujlarga qarshi immunitet kabi muhim yo'nalishlar yoritilmoqda. Zero, jamg'arma tashkil qilayotgan turkum ma'ruzalar o'zining yangi shakli bilan ajralib turadi. Bu yerda oddiy tinglovchi emas, faol ishtirokchi bo'lish asosiy tamoyil hisoblanadi. Har bir



Oqil SALIMOV,
akademik

yosh fikr bildiradi, bahs-munozarada qatnashadi, savollar beradi, takliflar kiritadi. Eng muhimi, u o'zining javobgarligini his qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. “Yoshlar – kelajagimiz” degan yondashuvdan “Yoshlar – bugunimiz va hozirgi taraqqiyotimiz” degan konsepsiyaga o'tilmoqda. Bunday strategik qarash bejiz emas, chunki mamlakat aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Ularning fikr odami bo'lishlari tashabbuskorlikni o'rtaga chiqaradi. Buning natijasida ijtimoiy-siyosiy hayotning har bir jabhasida yoshlar ishtiroki kuchayadi;

ular o'z salohiyatini namoyish etish uchun muayyan maydonga ega ham bo'lishadi.

Yoshlarni rag'batlantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirish imtiyoz va kreditlar berish yoki ular uchun ish o'rinlari ajratish bilan cheklanib qolmaydi. Eng muhimi, yoshlarning dunyoqarashi va tafakkur tarzi kengayadi; o'zligini, o'z milliy qadriyatlarini qadrlashi kuchayadi. Yoshlar qalbida ilm-fanga mehr-muhabbat, chin ma'noda vatanparvarlik hissiyotlari uyg'onishi, bu, menimcha, Uchinchi Renessans tomon olg'a qadam tashlash demakdir. Shu nuqtayi

nazardan, yoshlarga oid davlat siyosati bugun ilm-fan, ma'naviyat-ma'rifat, kitobxonlik madaniyatini kuchaytirish, milliy o'zlikni anglash, global dunyoda kechayotgan voqea-hodisalarga ogoh va hushyor munosabat tarzida olib borilayotgani o'zini oqlaydi. Mening bunga ishonchim komil, azizlar!

“Ulug'bek” jamg'armasi iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, xalqaro darajada tanilishiga ko'maklashish maqsadi yo'lida fundamental faoliyat olib borar ekan, bu jarayonda, eng avvalo, o'zbek xalqining ilm-fan, tafakkur va ziyolilik borasidagi tarixiy

an'analarga tayanadi. Bugungi qalbi g'ayrat-shijoatga to'la yoshlarimizning fikrlash tarzida jadid bobolarimiz orzu qilgan dunyo bilan bo'yilashish, uyg'onish, rivojlanish, eng asosiysi, zamonaviy dunyo taraqqiyoti mohiyatini tub-tubidan anglash tamoyillari juda muhim sanaladi.

Takror aytaman, jamg'arma bejiz Mirzo Ulug'bek nomini olmagan. Buyuk allomaning ilmga bo'lgan sadoqati, bepoyon osmoni falaklar tadqiqidagi orzusi, yulduzlar olamiga sayr-u sayohati jasorati, bilimga tayanib davlatni adolatli boshqarishi, olimona-faylasufona dono siyosati – bularning

barchasi yoshlarimiz uchun porlagan oydin mayoq, ulkan dorifunundir. Faqat bu dargohda ixlos bilan ta'lim olmoq lozim.

Jamg'arma yosh avlodning fikrini, talab va takliflarini eshitib, ularni keng ijtimoiy hayotga jalb etmoqda. Shu bilan birga ularni ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan mustahkam immunitetga ega shaxslar sifatida shakllantirmoqda. O'zining tarixiy ildizlariga suyanib, zamonaviy tafakkurga ega bunday yoshlar Yangi O'zbekistonning tayan-chi bo'lishi shubhasiz.

Bugungi O'zbekiston taraqqiyoti uchun eng muhim resurs bu – tafakkurli, bilimlil, o'zligini anglagan yosh avlodidir. Yosh avlodni tarbiyalash – bu nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning eng muqaddas burchi. Ayniqsa, bugungi shiddatli axborot oqimi, mafkuraviy xurujlar, soxta qadriyatlar hayotimizga kirib kelayotgan bir pallada yoshlar ongini ilm va tafakkur bilan qurollantirish – har qanday moddiy boylikdan ustun ishdur.

Zero, jamiyat hayotining taraqqiyoti, mamlakatning ko'rki, aslida, ko'p sonli binolar, zavod-fabrika yoki yo'llar bilan birga tafakkurli, vijdonli, bilimlil va iymonli insonlar aurasini bilan o'lchanadi. Bugun biz qanchalik fidokorlik bilan yosh avlodga mehr, ta'lim-tarbiya bersak, ularni haqqoniyat, to'g'rilik yo'lga boshlasak, tabiiyki, buyuk allomalari ong-u shuuri tufayli o'z vaqtda dunyo tamadduniga beqiyos ulush qo'shgan mamlakatimiz kelajakda shu darajada yuksaladi. Va shunda buyuk allomalar yurti qaytadan olamdagi eng nufuzli ilm-fan maskaniga aylanadi. Bu yurtning ilm osmonida Ulug'bek kashf etgan yulduzlar kabi iste'dodlarimiz kakhkashoni yanada yorqinroq porlaydi.

Boshlanishi 1-sahifada.

– Elmira opa, ma'rifatli ayolni shaxsan o'zingiz qanday tasavvur qilasin?

– Ayol ma'rifati, avvalo, tarbiya bilan uzviy bog'liq. Buvim rahmatli har doim “O'ilaga fayz-u barakani ayol olib kiradi”, derdilar. Hayotiy haqiqat shu, ayol ma'rifati faqat bilimi, lavozimi yo ma'lumotida emas, uning muhabbati, oilani boshqarishdagi raso tutumlari, farzand tarbiyasidagi mas'uliyatida aks etadi.

Oddiy hayotdagi ko'nikmalar ham ma'rifat belgisidir. Masalan, ko'klamda, “ilik uzildi” paytida pazandalikka oid xalqona odatlar: ko'ksomsa yopish, yangi ko'katlardan taom tayyorlash va qo'shnilariga ilinish – bularning barchasi buvilarimiz, onalarimiz tomonidan o'rgatilgan ma'naviy tarbiya namunasidir. Esilasangiz, behi pishig'ida momolar javon ustiga sarg'ish behilardan terib qo'yishardi. Nima uchun deb o'ylaysiz? Shamollashga davo, taomga maza-ta'm uchunmi? Faqat shuning o'zi uchun emas. Behining xush bo'yi asablarni tinchlantiradi. Har bir oilada mana shunday tartib-qoidalari, yurak-yurakdan amal qilingan qadriyatlar bo'lardi. Qiz bola tarbiyasida otalarning roli ham katta. Bobom jadidlardan edi va uzoq yillar o'z davrida yangi usul maktablarida muallim bo'lib ishlagan.

– Shu o'rinda bobongiz haqida batafsil-roq ma'lumot berib o'tsangiz.

– Mening bobom Eshon Islomov yurtimizda xalq maorifi sohasini yuksaltirish borasida ko'p mehnati singgan ma'rifatparvar inson bo'lganlar. U kishi o'sha davrning peshqadam ziyolilari Abdulla Avloniy, Tavallo, Munavvar qori bilan hammaslak bo'lib, tez-tez ulfatchilik qilib turishgan. O'sha davrdagi ulfatchiliklar hozirgi “gap”lardan tubdan farq qilib, maqsad yemak-ichmak emas, ilm-u urfon, millat qayg'usi, hurriyat orzusi, kitobxonlik edi. Ayniqsa, bobom Abdulla Qodiriy bilan juda yaqin bo'lib, ta'lim-tarbiya masalalari bo'yicha u kishi bilan maslahatlashgan, o'zaro fikr almashgan. Shundan kelib chiqib, ona tilining ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan qator o'quv qo'llanmalar yozgan. Barcha fidoyi millat oydinlari kabi bobom ham ma'rifat tarqatish maqsadida Qarshi, Sherobod kabi chekka hududlarda o'qituvchilarning malakasini oshirishda amaliy yordam ko'rsatgani haqida ma'lumotlar bor.

Bobom bitgan jami 12 ta kitobni O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutiga ilmiy tadqiqot uchun topshirganman. Ular orasida “Mirot al-zamon” (“Zamon ko'zgusi”) asari qo'lyozmasi ham bor. Xo'sh, Eshon boba hayotda qanday inson bo'lgan? Shu yerda u kishi bevosita menga bergan tarbiyaga oid hayotiy bir voqeani aytib bermoqchiman. Esimda bor, 9 yoshimda qo'limga “Farg'ona kelin” deb nomlangan kitobni tutqazib “onam, shu kitobni o'qing, menimcha, siz haqingizda yozilganga o'xshaydi”, deganlar. Bobom meni ismim bilan chaqirmay “onam”

derdilar. Kitobda men to'g'rimda nimalar yozilgan ekan degan qiziqish paydo bo'lib, bir kechada o'qib chiqqanman. Darhaqiqat, bu asar keyinchalik mening hayotimda muhim o'rin tutdi. Shu tariqa kitobga, ilmga, qadriyatlarimizga bo'lgan qiziqishim va munosabatim bobomeros tarbiya orqali shakllandi.

Bobom qatag'on qilinish, uzoq vaqt qamoqda o'tirgan. O'sha yerda ham imkon boricha yozgan, tarjimalar qilgan. O'z xatlari orqali uyimizdagilarga oila mustahkamligi va farzandlar tarbiyasi borasida yo'l-yo'riq ko'rsatib turgan. “Qobusnoma”ni o'zbek tiliga birinchilardan bo'lib tarjima qilgan ham mening bobom bo'ladi. U kishi qatag'onga duchor bo'lishidan oldin

degan “ayblov” bilan bir kunda Toshkent tibbiyot institutidan haydashgan. Onam aytib bergan dilgir voqealarni eslasam, haligacha xo'riligim kelib, ko'zlarim yoshga to'ladi.

– Bilim va tarbiyaning asosi oilada shakllanadi. Qiz bola bobosi, buvi, otanasidan ulgi oladi, shunday emasmi?

– Albatta, qiz bola eng birinchi tarbiyani oiladan oladi. Bolaligimizda dasturxon atrofida o'tirsak, onamizning baland ovoza nimadir deganini eshitmasdik. Andisha edi bu. Yoki bobom tanovulga qo'l cho'zganidan so'nggina boshqalar harakatga tushardi. Hurmat edi bu.

Afsuski, bugun ayrim oilalarda erkaklarning dasturxon boshida o'zini tuta

targ'ibotni kengaytirish ayni muddao. Bugun ayollar surati bilan emas, siyrati bilan ham jozbador ko'rinishini istayman. Shu ma'noda ma'rifatni biz G'arbdan emas, o'z tariximiz va urf-odatlarimizdan topishimiz zarur. Bizning milliy qadriyatlarimiz – hayo, hurmat, sadoqat, mehr-oqibat, odob, ayolga muhabbat, e'zoz-ehtiram – har doim o'zbek oilasining yuragi bo'lib kelgan. Bilasizmi, 80-yillar atrofida biz xotin-qizlar tarbiyasida biroz uzilish ro'y bergan davrni boshdan kechirdik. Ayollar boquvchilik yukini yelkasiga olib, og'ir sumkalari bilan chet ellarda tirikchilik qilishga majbur bo'lishdi. Bu holat vaqt o'tib, ommaviy ko'rinish oldi va jamiyatda muvozanat buzilishiga ham sabab bo'ldi.



ularning moddiy va ma'naviy bazasini ham aniqlab berganlar. Masalan, har bir shifokorning to'liq stavkada ishlashi va mehnatiga yarasha maoshini 1,5 ming dollargacha ko'tarish tashabbusini olaylik. O'ylaymanki, har qanday sog'lom fikrli tibbiyot xodimi bunday g'amxo'rlik va ishonchni oqlash uchun sidqidildan harakat qiladi. Chunki ular oddiygina tibbiy anjomlar bilan ta'minlanmagan shifoxonalar, ro'zg'orga urvoq bo'lmaydigan maosh tufayli “bemorning qo'lga karash”ga majbur bo'lgan davrlarini hali esidan chiqargani yo'q. Hozir islohotlar sabab kasalxonalar rosmiyan zamonaviy shifo maskaniga aylanyapti. Yaqin kelajakda, albatta, mavjud kamchiliklar ham bartaraf etilishiga ishonchimiz komil.

– Elmira opa, suhbatimiz yakunida, yurtdoshlarimizga o'z sog'lig'ini asrash yuzasidan qanday tavsiyalar bergan bo'lar edingiz?

– Bugun tibbiyotning vazifasi faqat kasallikni davolashdan iborat emas. Asosiy maqsad kasallikning oldini olish, inson hayotini saqlash va uning farvonligini ta'minlashdan iborat. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar inson hayotini qadrlash, uning salohiyatini asrash va sog'lom millatni vujudga keltirishga qaratilgan. Biz buni og'ir sinov – pandemiya davrida yaqqol angladik. Sog'lom inson-gina hayotdagi har qanday to'siqni yengadi, baxtini o'zi yaratadi. Shu bois, har bir yurtdoshimizga, avvalo, sog'-salomat bo'ling, degan tilakni bildiraman. Yana bir asosiy gap: Prezidentimiz jamiyatdagi ayrim illatlarga qarshi “halollik vaktina”si zarur degan hikmatli gapni ko'p ta'kidlaydi. Bu emlamaning asosi ma'rifata, kitobxonlikda, maktabdadir. Biz loqaydlik, dabdaba, kaltabinlik, takabburlik va ta'magirlik kabi “kasallik”larga birlashib zarba berishimiz shart. Shu yo'lida baholi qudrat zahmat chekayotgan “Jadid” gazetasi jamoasiga samimiy minnatdorlik izhor etaman. Hech bir xonadon eshigiga xastalik yo'lamasin, ostonalarda doimo baxt-u saodat muntazir tursin!

– Mazmunli va samimiy suhbatigiz uchun tashakkur. Sizga ham salomatlik va ishlaringizga bardavomlik tilab qolamiz.

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.

AYOL MA'RIFATI

hayot-mamot masalasidir

Toshkentdagi bolalar maktab-internatida rahbar bo'lib ishlagan. Bobom yoshlarning ta'lim-tarbiyasida ilm bilan birga hunar va ziroatchilikka ham e'tibor berish kerak, deb hisoblagan. Aytishlaricha, bobomni qamoqqa olish fitnasida u kishining ayni ana shu qarashlaridan ustalik bilan foydalanishgan ekan. Ya'ni, “bolalarni ishlatib, feodalarcha ekspluatatsiya qilyapti, biz sovet jamiyatini bunday yot unsurlardan murosasiz tozalashimiz shart”, deb ig'vo xati yozishgan. Shu birgina chaquv xatini dastak qilib, “odil sovet sudi” u kishiga 17 yillik qamoq jazosini tayinlagan. Bobom aybsiz-aybdorlar qatorida Norilsk orolidagi qamoqxona va mehnat lagerida og'ir sharoitlarda ana shu muddatni to'liq o'tagan. Buvijonim esa yetti norasida bilan chiqillab qolavergan. Dardini kimga aytisin?

– Ha, u paytlarda ayollar erkaklardan kam jabr ko'rmagan, deyishadi.

– Nimasini aytasiz. Onamning aytishlaricha, NKVD vakillari “sen xalq dushmanining oilasidan”, deb hovlida yerga solingan eski sholchani ham yig'ishtirib olib ketgan ekan. Ship-shiydam hovlida na yeyishga, na o'tirishga biron narsa qolmagan kunlarda ular yana paydo bo'lib, do'q-po'pisa bilan buvimdan uyni tezda bo'shatishni talab qilishadi. Buvim bechora yig'lab-siqtagan ko'yi ikki bolasini eshakka mindirib, besh farzandini yayov ergashtirib, Zangiotedagi ota hovlisiga boradi va o'sha yerda yashab qoladi.

Keyinchalik o'qishga kirgan ikki xolamni ham “xalq dushmanining qizi”

bilmasligi, kayfiyatiga qarab qo'pol munosabati – “Bu nima ovqat?”, “Yaxshiroq qilsang bo'lmaydimi?” kabi jerkishlar, eng yomoni, bu bolalar ko'z o'ngida ro'y berishi – o'ta yomon, balki xatari holatdir. Bola tarbiyani so'zdan ko'ra ko'proq o'ta-ona harakati, munosabatidan o'rganadi, o'zlashtiradi. Shaxsiy namuna, ijobiy muhit va e'tibor eng samarali tarbiya vositasidir. Ilm-fan tadqiqatlariga ko'ra, aql, qobiliyat va idrok asosan onadan o'tadi. Bu esa bizning milliy qarashlarimiz bilan ham uyg'un. Shu o'rinda ta'kidlashni istardim, farzandga maqtovlar me'yorida bo'lishi zarur. Og'zidan chiqqan har neni bajo keltirish bola tarbiyasiga aks ta'sir qilishi hech gap emas. Tarbiya shunday – oltin o'rtaligini so'raydigan nozik masala. Shundan kelib chiqib, ma'rifatli ayol bu tarbiyalii ayol, deyman.

– Bugun xotin-qizlarimizni yanada ma'rifatli etish uchun nimalarga e'tibor berish kerak, deb o'ylaysiz?

– Taraqqiyot faqat iqtisodiyot yoki texnologiya bilan emas, ma'naviyat va ong bilan ham chambarchas bog'liq. Ayol ma'rifatlil bo'lsa, oilada muhit sog'lom bo'ladi. Bugungi kunda, avvalambor, qiz farzandlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor berishimiz kerak, nazarimda. Kitobga mehr uyg'otish, ularning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu faqat shahar markazlariga emas, chekka hududlarga ham birdek taalluqli. Imkoniyatlar teng bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, axloqiy tarbiyani kuchaytirish zarur. Ma'rifat faqat darslikdan emas, muhitdan, qalbdan va o'rnakdan keladi. Bu borada OAV va ijtimoiy tarmoqlarda ma'naviy

Shukur, so'nggi yillarda Prezidentimiz boshchiligidagi amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli xotin-qizlar sha'ni, mavqeyi va nufuzi qayta tiklanmoqda. Bugun ayollar uchun ilm-fan, siyosat, tadbirkorlik va boshqa sohalarida keng imkoniyatlar yaratilgan. Eng muhimi, ayol o'z ustida ishlashi, imkoniyatdan unumli foydalanishi, shu bilan birga oiladagi burchini ham unutmashligi kerak. Xonadon fayzi va jamiyat rivojiga birday hissa qo'sha olsak, mana shu ayol ma'rifatining eng yuksak cho'qqisi deb hisoblayman. Shaxsan o'zim ham ayol va ona sifatida hayotdagi o'rimndan mamnunman.

– Joriy yilning 7-may kuni Prezidentimiz raisligida tibbiyot tizimidagi islohotlar tahliliga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda fidoyi shifokorlar mehnati e'tirof etilgan holda, sohadagi kamchiliklar xususida tanqidiy fikrlar ham bildirildi. Sir emas, xalqimiz orasida ham sohaga nisbatan ba'zi e'tirozlar bor.

– Davlatimiz rahbari o'sha yig'ilishda mamlakatimizda tibbiyot xodimlarining soni bo'yicha ham, sohani davlat tomonidan moliyalashtirish borasida ham muammolar yo'q bo'lsa-da, biroq tibbiy xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha og'riqli savollar ko'p ekaniga e'tibor qaratiladi. Bu o'rinda gap shifokorlarning salohiyati, saviyasi, vijdoni va vatanparvarligi haqida boryapti. Ana shu sifat bo'lmasa, ya'ni, shifokorning qonida “fidoyilik ehlamasini” bo'lmasa, sohada turli-tuman illatlar davom etaveradi. Bor gapni aytish kerak, Davlatimiz rahbari sohadagi har qanday muammolarga yechim topib,



TAHLIL

Keyingi yillarda Bobur hayoti va ijodini o'rganish hamda keng targ'ib etish borasida yanada samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimiz va dunyo miqyosida qator ilmiy anjuman va konferensiyalar tashkil etilib, boburshunoslikka oid ko'plab ilmiy masalalar yuzasidan fikr almashilmoqda.

ARUZ – SHARAFLI ILM

Yurtimiz olimlari tomonidan o'zbek, rus va ingliz tillarida "Bobur ensiklopediyasi"ning to'ldirilgan uchinchi nashrini tayyorlash borasidagi ishlar ham qizg'in pallada. Bundan tashqari, 2022–2025-yillarda "Bobur asarlari lug'ati", "Boburnoma"ning yangi nashri qoraqalpog' tillaridagi tabdili chop etildi, asarning qozoqcha, qirg'izcha va italyanacha tarjimalari yuzaga keldi. Bobur nomli xalqaro jamoat fondi tashabbusi bilan adibning to'la asarlar to'plami – "Kulliyot" o'quvchilar qo'lga yetib bordi. Ko'p tilli Bobur platformasi (baburid.uz) yaratilgani ham keyingi yillarda boburshunoslikda erishilayotgan yutuqlar ko'laminii belgilaydi.



Shuhrat HAYITOV,
filologiya fanlari doktori,
adabiyotshunos

mad Boburning xizmati benihoya katta. Ulug' shoir o'zining "Aruz risolasi"da turkiy aruzning nazariy va amaliy jihatlarini ko'pgina misollar orqali ifodalab beradi. Masalan, Navoiy "Mezon ul-avzon"da 19 bahr, 160 vazn haqida ma'lumot

mansub bo'lib, Hoji Samarqandiy tomonidan hijriy 940-yili ko'chirilgan ekan" deydi. Fuad Ko'pruluzodaning ushbu ma'lumotlarini keyinchalik fransuz sharqshunosi E.Bloshe ham 1933-yilda tuzgan o'z katalogida tasdiqlagan.

O'zbekiston matbuotida "Aruz risolasi" qo'lyozmasi haqidagi dastlabki ma'lumotlar Maqsud Shayxzodaning "Qo'shiqlar haqida" maqolasida uchraydi. Shayxzoda 1964-yili Moskvadagi Markaziy kutubxonada turk olimi Ko'pruluzoda asarining "Turk klassik adabiyotida nazm shakllari" bobini ko'zdan kechirayotib, Boburning Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan "Aruz risolasi" asari tavsifini uchratadi. Bu haqda professor Saidbek Hasanov 1981-yilda nashr ettirgan "Aruz risolasi" so'zboshisida ham to'xtalib o'tadi.

"Aruz risolasi"ning Ko'pruluzoda tomonidan topilgan Parij qo'lyozmasi fotonusxasini Shayxzoda ma'lumotlari asosida navoiyshunos olim Hamid Sulaymonov vatanimizga olib keladi va uni birinchilardan bo'lib faksimilesini nashr ettirib, ilmiy muomalaga kiritadi.

Jadidlik harakatining mashhur vakillaridan,



“ARUZ RISOLASI”MI, “MUFASSAL”MI YOKI “MUXTASAR”?

“ARUZ RISOLASI” TURK TILIDA

Boburshunoslikda xorijlik olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqot ishleri yanada quvonarli. Ana shunday ilmiy fundamental tadqiqotlardan biri "Aruz kitobi"dir (2024). Turkiyalik olim, filologiya fanlari doktori, professor Tanju Oral Seyhan tomonidan tayyorlangan ushbu kitob muallifning boburshunoslik sohasida ko'p yillik izlanishlari samarasi o'laroq yuzaga kelgan. Tadqiqotchi bunga qadar ham qator izlanishlarini, jumladan, 2004-yili "Mubayyin" asarini Berlin va Toshkent qo'lyozma nusxalari asosida ilk bor turkchada e'lon qilgan. "Boburnoma", "Risolayi volidiyya", "Xatti Boburiy" haqida ham ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Tanju Seyhan qariyb yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida "Aruz risolasi"ni o'rganib keladi. Uning bu boradagi ilk tadqiqotlari 2000-yil boshlarida e'lon qilingan. "Aruz kitobi" tarjima nashriini turkiy aruzshunoslik ilmining tadjriiy taraqqiyotidagi muhim tadqiqot o'laroq baholash mumkin.

"Aruz kitobi" uch qismdan iborat bo'lib, unda "Aruz risolasi"ning uchta nusxasi – Parij milliy kutubxonasi, Tehrondagi "Golestan saroyi" muzeyi hamda Istanbuldagi Marmara universiteti ilohiyot fakulteti kutubxonasida saqlanayotgan kulliyotdan ma'lumotlar keltiriladi. Olima fikricha, shu kunga qadar ilm ahliga ma'lum bo'lgan ushbu qo'lyozma nusxalar o'zaro qiyoslanganda ular orasida juz'iy kamchiliklardan tashqari, matn va til bo'yicha deyarli farqlar yo'q. Shu bois olim tarjimada eng eski nusxani emas, balki to'liq bo'lgan Istanbul nusxasini asos qilib olganini qayd etadi.

ENG TERAN QARASH EGASI

Sharq mumtoz poetikasi asosini ilmlar uchligi tashkil qiladi. Bular: ilmi aruz, ilmi bade' hamda ilmi qofiya. Mumtoz adabiyot tarixida bu uch ilm birgalikda mumtoz she'r nafosati, shoir salohiyatini belgilovchi bosh mezon hisoblangan. Ular orasida aruz ilmi nisbatan murakkab hisoblanib, uni yaxshi bilmaslik mumtoz asarlar mohiyatini anglashda qiyinchilik tug'diradi. Aruz sharaflil ilm bo'lgani bois adabiyot olamida unda ko'plab mumtoz asarlar bitilgan. Turkiy adabiyot tarixida eng birinchi risola Shayx Ahmad Taroziyning "Funun-ul balog'a" ("Balog'at fanlari") ekanini aytiladi. Undan keyin Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari, undan so'ng esa Bobur Mirzoning "Aruz risolasi" keltiriladi.

Hazrat Navoiy "Mezon ul-avzon"da o'zidan avval ushbu ilmda asar bitgan Shams Qays, Xoja Nasr Tusiy, Abdurahmon Jomiy kabi aruz nazariyachilari hamda bu ilimga asos solgan Xalil Ibn Ahmad ismini va uning aruzga oid "Kitob ul-ayn" asarini eslab o'tadi. Navoiy, shuningdek, Xalil Ibn Ahmad yashagan hudud yaqinida Aruz degan vodi y borligi haqida ma'lumot beradi. Bu vodiya arablar chodirdan uylar tikib, ularni bezatishi, uyni esa "bayt" deb atashini aytadi. Baytning mavzun-nomavzun (vaznli-vaznsiz) ekanligini aruz fanining o'choviga solib ko'rishgandek, bezatilgan uylar ham bahoga solib o'lchanishini qayd etadi. Shu tariqa mazkur ilm ushbu vodi nomi bilan "aruz" deb atala boshlangan.

Turkiy she'riyatning aruz tizimi taraqqiyotida Navoiydan keyin Zahiriddin Muham-

berib o'tgan bo'lsa, Bobur "Aruz risolasi"da 272 ta vazn borasida so'z yuritib, har biriga faqat turkiy she'riyat namunalaridan emas, balki forsiy va arabiy she'riyatdan ham misollar keltirib o'tadi. Olimlar bu asar aruz vazniga oid turkiy va forsiy risolalardan ko'p jihatdan farq qilishini qayd etishadi.

"Aruz risolasi"dan shu narsa ma'lum bo'ladi, Bobur "Mezon ul-avzon"ni turkiy millat adabiyoti uchun yetarli deb ko'rmagan va uni tafsilot bilan to'ldirish hamda misollar bilan boyitishni maqsad qilgan. Fitrat ta'biri bilan aytganda, Bobur "adabiyot va san'at dunyosida eng teran qarash egasi" bo'lgan.

"Aruz risolasi" tadqiqi tarixiga nazar tashlasak, asar qo'lyozmasi haqidagi ilk ma'lumot E.Blosheining "Parij milliy kutubxonasidagi turkiy qo'lyozmalar katalogi"da uchraydi. Unda Boburning aruzga oid risolasi mazkur kutubxonada saqlanayotgani haqida xabar mavjud. Keyinchalik Bobur risolasining hijriy 931, milodiy 1524-yilda ko'chirilgan yana bir qo'lyozmasi Tehrondagi Saltanat kutubxonasida saqlanayotgani aniqlanadi. Aruz vaznini uyg'ur she'riyati misolida o'rgangan olim M.Hamroyevning 1969-yili e'lon qilingan "Turk she'riyati nazariyasi ocherkleri" kitobida Boburning "Aruz risolasi" qisqartirilib, uning uyg'ur yozuvidagi transliteratsiyasi ilova qilinadi. Kitobda mazkur risolaning yana bir qo'lyozma nusxasi Sharqiy Turkistonning Kuchar shahrida saqlanayotgani to'g'risida ma'lumot berilgan.

"Aruz risolasi" o'zbek adabiyotida Saidbek Hasanov tomonidan maxsus o'rganilgan bo'lib, olim ushbu yirik tadqiqotni 1971-yilda "Muxtasar" nomi ostida foto faksimile nusxasi va kirill alifbosidagi matni bilan nashr ettiradi.

Boburshunoslikdagi keyingi tadqiqotlar "Aruz risolasi"ning Turkiyaning Marmara kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi ham mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu qo'lyozma asosida 2021-yili Zahiriddin Muhammad Bobur "Kulliyoti"ning 3-jildidan o'r in olgan "Aruz risolasi" kitobi tayyorlangan bo'lib, uni filologiya fanlari nomzodi S.Sayfidinov arab imlosidan joriy yozuvga tabdil qilgan.

Turkiyalik olim, "Bobur devoni" (1995) tarjimoni Y.Bilol "Bobur o'z risolasiga aruz ilmi tarixida birinchi bo'lib 537 vaznni jamlaydi va bu vaznlarga yetmishga yaqin mashhur shoirlar ijodidan turli misollar keltiradi", deb yozadi. Shu tariqa Bobur o'zbek mumtoz poeziyasida qo'llanib kelingan 289 vazn va ularning shakllari ta'rifi beradi. Umumaruz ilmini o'zi ixtiro qilgan 248 yangi vazn bilan boyitib, aruzshunoslik ilmiga beqiyos hissa qo'shadi.

Shuni alohida ta'kidlash joiz, "Aruz risolasi"ning Parij milliy kutubxonasida saqlanadigan qo'lyozma nusxasi XX asrning 30-yillariga qadar ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan. Turk olimi Fuad Ko'pruluzoda 1923-yili ushbu qo'lyozma Boburning "Aruz risolasi" ekanligini aniqlab, "Turk tili va adabiyoti haqidagi tadqiqotlar" majmuasida yozadi. Olim risolani Parij milliy kutubxonasining Sharq qo'lyozmalari katalogi bilan tanishayotgan vaqtda tasodifan ko'rib qolganini va aniqlaganini qayd etadi. U: "Men 1923-yili Parij milliy kutubxonasining qo'lyozmalar katalogida muallifi noma'lum, chig'atoy tilidagi bir aruz risolasi borligini ko'rdim. Turk nazm shakllariga oid ba'zi ma'lumotlarni topish umidi bilan asarni tekshirib chiqsam, u Boburshoh qalamiga

yangi o'zbek adabiyoti asoschilaridan, zabardast olim Abdurauf Fitratning "Aruz haqida" nomli asarini o'rgangan va nashrga tayyorlagan olim Hamidulla Boltaboyev ma'rifatparvar Fitrat Navoiy va Boburning aruzga bag'ishlangan asarlaridan yaxshi xabardorligini va uning qo'lida Bobur risolasining nusxalaridan biri bo'lganini ta'kidlaydi.

"Aruz risolasi"ning yana bir qo'lyozma nusxasi Tehrondagi "Golestan saroyi" muzeyida saqlanayotgani ma'lum.

Bobur o'z risolasida mumtoz fors adabiyotining yirik vakillari Rudakiy, Nizomiy Ganjaviy, Fariduddin Attor, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy Sheroziy, Salmon Savojiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy asarlaridan parchalar bergan. Asarda u o'z qalamiga mansub she'rldardan tashqari, Navoiy, Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Sulton Husayn Mirzo va boshqalarning asarlaridan ham iqtiboslar oladi.

Ko'pruluzoda "Turk tili va adabiyoti xrestomatiyasi"dagi "Tuyuq" nomli yana bir maqolasida asar tahlilini keltiradi. Boburshohning turk she'riyatiga mansub tarona, qo'shiq, tuyuq (tajnis) va boshqalar haqida mumtoz ohang hamda she'r tuzilishi qoidalarini qo'llaganini aytadi.

“ARUZ RISOLASI”MI, “MUFASSAL”MI YOKI “MUXTASAR”?

Risola tadqiqi borasida olib borilgan ishlarda uning nomanishi borasida ham turli fikr-mulohazalar uchraydi. Adabiyotlarda asosan asar nomi uch xil – "Aruz risolasi", "Mufassal" va "Muxtasar" tarzida keladi. Qo'lyozmani Ko'pruluzodadan keyin ko'zdan kechirgan Rizo Nur risola oxirrog'idagi muxtasar so'zini asar nomi deb o'ylaydi: "Chun bu muxtasar safarda bayozg'a bordi, ul munosabat bila musofir masoyilini bitildi". Vaholanki, bu yerda "muxtasar" so'zi asar nomi emas, balki "Mubayyin" asaridagi 27 bayt (54 misra) dan iborat "Musofirona namozning bayoni"ni anglatadi. Adabiyotshunos olim va shoir Mirzo Kenjabek bu asarni "faqatgina "Aruz risolasi" deb yoki "Mufassal" deb nomlash mumkin. Asarni "Muxtasar" deb atash esa mutlaqo xatodir", deb yozadi. Darhaqiqat, bizningcha ham asar "Aruz risolasi" deb nomlangani to'g'ri. Boisi, Boburning o'zi asarni "Aruz" deb atagan. Xususan: "Aruz" *itmomidin ikki-uch yil so'ng Hindiston fathining to'nggini yili Sanbal sarig'a borur fursatta bir mutavval bayt o'n olti rukn bilan aytilib edi*".

"Aruz risolasi" Hindistonda fors tiliga ham tarjima qilingan. Bu ishni boburiylar xonadoniga mansub shoir, olim va tarjimon Azfariy (1760–1819) ham nasrda, ham nazmda o'g'irgan. Hozirda tarjimaning ikkita qo'lyozma nusxasi Hindistondagi fondlarda saqlanmoqda. Ushbu ma'lumotda biz uchun muhim nuqta shuki, Azfariy asarni "Aruzi turkiy" deb atagan.

Asar borasida olib borilgan tadqiqotlarning asosiy qismi o'zbek, turk, rus, uyg'ur va ozarbayjonlik olimlar hissasiga to'g'ri keladi. Umuman olganda, "Aruz risolasi" tadqiqiga doir ishlarining ko'lami keng. Ularni bir tizimga solib, qiyosiy tadqiq etish, ayrim manbalardagi ba'zi chalkashliklarni bartaraf etish, ayniqsa, asar qo'lyozmasi va uning tavsifi, o'rganilishi va ilmiy-nazariy mohiyati haqida asoslangan xulosaga kelish bugungi kun adabiyotshunoslik ilmining dolzarb masalalaridanir.

MULOHAZA



O'tgan asrning yigirmanchi yillarida sobiq sovet tuzumini achchiq satira va yumor bilan fosh qilgan mashhur yozuvchilar Ilya If va Yevgeniy Petrov hammualliflikda yozgan "O'n ikki stul" hamda "Oltin buzoqcha" asarlarini ko'pchilik o'qigan, shu asarlar bo'yicha yaratilgan kinofilmlarni ko'rgan. Bu ikki yozuvchi hamkorlikda boshqa asarlar ham yaratishgan. Jahon adabiyoti tarixida eng omadli "tandem" degan mazmunda savol berilganda Ilya If hazil aralash: "Birimiz yozgan asarimizni chop qildirish uchun nashriyot izlaganimizda ikkinchimiz qo'lyozmalarini o'g'irlab ketishmasin deb qorovullab o'tiramiz", deb javob qaytargan.

Badiiy asami hammualliflikda yaratishda har ikki adibning yozish uslubi bir-biriga mos kelishi shart. Aka-uka Mann hamda aka-uka Grimmlar yaratgan asarlarda buni yaqqol ko'rish mumkin. Asar go'yo "bir qo'ldan chiqqandek" tuyuladi.

Bu talab ilmiy-texnik, tarixiy-jug'rofiy asarlarni birgalikda yozadigan olimlarga ham bevosita taalluqli. Bunda fanning aniq bir sohasi va tadqiqot manbasi bir bo'lishi shart. Ammo afsuski, hozir yozmoq bo'lganimiz aynan hammualliflikning shu sohalaridagi "g'alati tajriba"lari, to'g'rirog'i, uning boshqacha turlari va usullari to'g'risida.

Tengqur jurnalist do'stimiz bir umr o'zi tug'ilib o'sgan qishloq tarixi, odamlari, urf-odatlari to'g'risida ma'lumotlar yig'di va nihoyat uni kitob holiga keltirdi. Iltimosiga ko'ra kitobga bir qur ko'z tashlab, tahrir qildim va uni nashriyotga topshirsa bo'laverishi kerakligini aytdim.

Oradan ikki yilcha o'tgach hamkasbimiz og'ir betob bo'lib qolganini eshitib, holidan xabar olish uchun oldiga bordim. U darddan ancha so'lgan bo'lsa-da ruhan tetik edi. Kayfiyati, ayniqsa, bosma hidi anqib turgan kitobga dastxat yozib berganida yanada ko'tarildi. Hamkasbimizni "umr kitobi" chop qilingani bilan tabrikladim-u... biroq asar muqovasiga ko'z tashlab hayratim oshdi. Negaki, uning ism-sharifi yonida boshqa bir muallif nomi ham tirkalib turadi.

U ajablanganimni ko'rib, noiljoz izoh bergan bo'ldi: "Kitobni o'z hisobimdan chop qilish uchun yetarli mablag' to'plagandim, ammo to'sat bu dard yopishdi. Yig'ganim davolanish, dori-darmonga ketdi. Kitob nashriyotda turganini eshitgan shu odam meni yo'qlab keldi, chop qilishga yordamlashishini aytdi. Evaziga uning ism-sharifini ham qo'yishim kerak ekan. Nima qilay, shu kitobni ko'rib ketay dedim-da..."

Hamkasbimiz yozgan kitobga hammuallif bo'lgan odam havaskor qalamkash emas, ilmiy darajasi bor olim ekan...

Yigirma besh yillar oldin poytaxtdagi bir nashriyotda tarixiy-ommabop risolam chop qilindigan bo'ldi. Nashriyot bosh muharriri atay vohaga nashr masalasida keldi. Yonidagi hamrohini "tibbiyotga doir ilmiy asarlar chop qilindigan nashriyot muharriri", deb tanishtirdi. Hamrohli viloyatda tibbiyot sohasida ilmiy darajali rahbar xodimlardan tanishim bor-yo'qligini surishtirdi. Tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajali bir tanishim o'sha vaqtda kattagina vazifada ishlardi. Nashriyot muharririning iltimosiga ko'ra o'sha tanishim yoniga olib bordim va ajabtovur suhbat guvohi bo'ldim. Muharrir nashriyotlarida chop qilinishi rejalashtirilgan risola, monografiyalarning ro'yxatini tanishimning oldiga qo'ydi. U esa ro'yxatni ko'zdan kechirar ekan "Mana bu monografiya narxi qancha, bunisiga qancha berish kerak?" deb savdolashishga tushdi. "Bozor iqtisodiyoti" savdosiga hayrat bilan tikilib o'tirdim. O'sha tanishim ro'yxatdagi to'rtta kitobga hammuallif bo'lishga rozilik berdi – ikki o'rtada savdo pishdi. Har bir kitobga hammuallif sifatida ism-sharifini qo'yish bahosi aytildi. Qiymat o'rtacha 4-5 ming AQSh dollari miqdorida edi...

Rahbar oldidan chiqqach, muharrir o'zini oqlagan bo'ldi: "Bizniki ham tirikchilik. Bu ro'yxatdagi monografiya yoki risolasini nashriyotga topshirgan yosh olimlarning uni chop qilishga mablag'i yo'q. Shuning uchun o'zlariga hammuallif topishni bizlarga topshirishgan. Bundan ikki tomon ham manfaatdor – kitob chiqadi, nashriyotning qozoni qaynaydi. Boshqa yo'li yo'q-da!"

O'zi yozmagan va hatto sohasiga aloqasi bo'lmagan risola yoki monografiyaga ism-sharifini taqagan fan doktori bundan qanday manfaat ko'radi, dersi? Unga professor ilmiy darajasini olishi uchun qanchayam hajmdagi ilmiy ishlar chop qilinishi kerak bo'larkan. Keyin "Falon kitob yozganman", deb minbarlarda maqtanib ham yuradi.

Ayrim ilmiy risola, monografiyalarda ikki, uch va hatto to'rt kishining ism-sharifi muallif sifatida keltirilishi ortida ko'pincha shunga o'xshagan "ikki tomonlama manfaatdorlik" yo'qmiyin degan shubhaga boraverasiz. Iqtidorli tarixchi inimiz umrining aksar qismini arxivlarda o'tkazishga odatlangan. Chang bosgan hujjatlarini ko'tarish orqali u o'tgan asrning o'ttizinchi yillar qatag'oni qurbonlari haqida ko'plab maqolalar

yo'zdi, risola va kitoblar chiqardi. Aynan shu mavzudagi so'nggi kitobi muqovasida mualliflar qatori begona bir ism-sharif qo'qqayib turganini ko'rib: "Ha, tadqiqotlar charchatdimi?" deb hazillashdim. U savolim mohiyatini tushundi va izoh berdi: "Hozir kitobni o'z hisobingdan chiqarish oson, ammo uni sotish, hech bo'lmasa sarflangan mablag'ning bir qismini qaytarib olish qiyin. Bu odam kitobni sotishni o'z zimmasiga oldi. Ko'p mehnatim singgan tarixiy kitobni ko'proq odam o'qisin dedim-da..."

Bundan ham achinarli bir holatga guvoh bo'ldim. Xorazmlik jadidlarning ma'rifat sohasida amalga oshirgan ishlaridan hikoya qiluvchi tarixiy risolaga bir emas, to'rt nafar muallifning nomi terilgan. Ulardan biri qaysidir tumanda kattagina vazifada ishlarkan. Tushundingiz – o'sha amaldor kitobni tarqatish (sotishni) o'z zimmasiga olgan.

To'g'ri, aynan bir sohada tadqiqot olib borayotgan, izlanishlari mushtarak olimlarning birgalikda asar yozishlari tabiiy hol. Ilmiy adabiyotda badiiy uslub emas, tadqiqot mazmun-mohiyatini qay yo'sinda o'quvchilarga yetkazish muhim. Mabodo asar o'quv qo'llanmasi bo'lsa, unda bir nechta muallif nomi keltirilishini tushunish mumkin. Bu holatda kitob boshlamasida qaysi olim qaysi boblarni yozgani, albatta, eslatiladi.

Bir paytlar voha tabobati haqida risola yozgandim. Ancha ma'lumotlarni shu sohaga qiziqadigan bir ziyolidan olganman. Evaziga kitobga o'zining nomini muallif sifatida qo'yishimni so'ragan. Keks kishining iltimosini rad qilolmadim, qolaversa, risola dunyoga kelishida uning xizmatlari oz emas edi.

Kitob qo'limga tegganida esa... hayratga tushdim. Muqovasida uchunchi birovning nomi ham turardi. Yana deng, alifbo qoidalariga binoan mening ism-sharifim eng oxirida – uchinchi hammuallif sifatida qo'yilgan.

Kitobga tasodif hammuallif bo'lgan yigit nashriyot bosh muharririning o'g'li ekan. U nomzodlik ilmiy ishi ustida ishlayotgan, yoqlash jarayonida chop qilingan maqolalari qatorida shu risola kattagina tosh bosishi mumkinligini bosh muharrir aytib, o'zicha tushuntirgan bo'ldi. Uzu so'rash qayda?

O'sha bosh muharririning menga hammuallif bo'lgan o'g'li hozirda katta olim. (Eng qizig'i, u inson bilan hayotda biror marta uchrashmadik).

Aynan ilmiy asarlarda "ustoz-shogird" olimlarning hammuallif bo'lishlari odatiy holga aylangan. Kichikroq risola yoki salmoqli monografiyani bu "tandem"da zahmatkash shogird yozishi kundek ayon. "Ustoz" ko'pi bilan unga maslahatchi bo'lishi mumkin. Eng yomoni, ko'pincha kitobni yozgan shogirdning ism-sharifi ikkinchi muallif sifatida keltiriladi. Buning ustiga, ayrimlar "Falonchi olim yozgan asariga shogirdining nomini ham qo'shib, unga muruvvat ko'rsatibdi", deyishadi.

Shu o'rinda ushbu mulohazamiz barcha "tandem"chilarga tegib ketmasligi uchun bir misol keltiramiz. O'tgan asrning saksoninchi yillari oxirida ilk bora oliyog'oh talabalari uchun o'zbek tilida "Organik kimyo asoslari" o'quv qo'llanmasi yaratilgan. Bu qo'llanmani ustoz-shogird – Sa'dulla Iskandarov va Boboxon Sodiqov qay tarzda yozishganini o'zlaridan eshitganman – darslik dunyoga kelishi uchun o'n yil vaqt sarflangan. Akademik ustoz va professor shogird yaratgan bu asar hali-hamon talabalar uchun muhim darslik sifatida e'tirof etilib, qayta va qayta chop qilinmoqda...

Xususiy nashriyoti bor hamkasbim qiziq gap aytib qoldi: "Hozir nima ko'p – universitet ko'p. Ayniqsa, xususiy o'quv dargohlari yil sayin ko'paymoqda. O'sha o'quv dargohlarining o'qituvchi-olimlari o'zlari yozgan monografiyalarni chop ettirish uchun ko'p murojaat qilishadi. Ikki yuz-ikki yuz ellik varaqli monografiyada ko'pincha uch-to'rt kishining nomi muallif sifatida ko'rsatiladi. Afsuslanarli tomoni, bu monografiyalar adadi yuz donadan oshmaydi. Hatto "o'quv qo'llanmasi" degan eslatma borlarni ham shu adadga yaqin bo'ladi. Axir o'quv qo'llanmasi katta miqdorda chop qilindi, undan talabalar o'quv jarayonlarida tanishishlari kerak emasmi? Yo'q, bu oz adadli monografiya ularga "falon bosma ta'biy ilmiy ishlar chop qilindi", degan ko'rsatkich uchungina lozim ekan. Ilmiy tadqiqot ataladigan risolalar taqdiri ham shunday. Sanoqli nusxasi tegishli tashkilotlarga taqdim qilinadi, xolos. Mana bugungi "fidoyi, izlanuvchan olimlar"ning ahvoli.

Ushbu maqolani "majburiy tandem"lik boshidan kechgan, bir emas, beshita kitobni shu yo'sin hammualliflikda chop qilish majburiyatida qolgan bir qalamkash sifatida qoraladim.

Maqola boshida keltirilgan mashhur satirik yozuvchilar Ilya If hamda Yevgeniy Petrovga hozirgi zamon o'quvchisi birgalikda qanday asar yozishlari haqida savol berganida javobi quyidagicha bo'lardi: "Birimiz kecha-yu kunduz kitob yozamiz, ikkinchimiz esa kitobni chop qilishga mablag' beradigan uchunchi va to'rtinchi hammualliflarni topish uchun izg'iyimiz".

Ro'zimboy HASAN,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi



Xudoning yorlaqagan kunlaridan biri-da, hamal oyi edi, keshlik Shayx Shamsiddin Kulor muridi Muhammad Tarag'ay xonadonida mehmon bo'lgani Xo'ja Ilg'or qishlog'iga yo'l oldi. Shaharda zerikkan shayxda bir kengliklarga chiqib, kunchiqishda yastanib yotgan Hisor tog'larini, Xo'ja Ilg'or qishlog'i manzaralarini, yashillikka burkangan dalalarni tomosha qilish, musaffo havolardan nafas olish ishtiyoqi kuchli edi.

Ochiq chehrali, qo'y ko'zlari hamisha tabassum bilan iylangan, ko'rinishidan baquvvat, qaddini tik tutib yuradigan, quyuq qora qoshli, chiroyli qalin soqoliga hali oq oralamagan, qirq yoshlardagi chaqnoq ko'zli Shayx Shamsiddin Kulor Movarounnahrqa nomi keng yoyilgan zamona allomasi edi. U o'zini olam, borliq hamisha nur bilan yo'g'rilgan, olam porloqligi dilning munavvarligidir, degan ta'limotga asos solgan mashhur karomat sohibi Shahobiddin Yahyo as-Suhravardiyniing — Alloh aziz ruhini muqaddas etsun, — shogirdi hisoblardir.

Shayx Xo'ja Ilg'or ota qabristonida dafn etilgan tabarruk zot Xo'ja Muhammad ibn al-Qosim mozorini ziyorat aylaydi. Boshqa aziz-avliyolarga ham duolar o'qib, ruhlarini shod etadi.

Sog'inib qolgan muridi bilan uchrashishni o'yab hozirdanoq dilida huzurlar tuyadi. Negadir ayni bugun shu niyatni amalga oshirmoqqa kirishdi, Xudo dilga soldi. Uyida o'tirolmadi. "Allohnig o'zi hakam", deb qo'ydi o'ziga o'zi. U doim shu iborani takrorlab yuradi. Alloh dilga soldimi — uni ado etmoq kerak. Darhol shogirdi Shahsuvor munajjimni huzuriga chorlatdi.

Shahsuvor munajjim ko'p kuttirmadi, darrov yetib keldi. U asli keshlik, tez-tez gapiradigan, suhbat shirin, keng mulohaza yuritadigan o'ttizlardagi o'rtacha bo'y yigit bo'lib, shira soqol-mo'ylabi o'ziga yarashib turar, bolaligidan ilmi nujumga qiziqar, yulduzlarni o'rganar, ba'zan to'g'ri chiqib qolgan bashoratlari bilan odamlarning olqishiga sazovor ham bo'lardi.

Shayxning muridi yigirma besh yoshli Muhammad Tarag'ay davlati mo'g'ul qo'shinlarida sarkarda-amirlik qildi, biroq mo'g'ullarning elga qattiq zulm qilganlarini ko'rib, izzat nafs lat yedi, harbiy ishlardan ko'ngli sovi b ketdi va tamoman boshqa tomonga — islom ma'rifatiga yuz burdi. U Haqning sevar bandalarini sevar, kichik fe'l, harakatchan, o'zini vazmin tutar, yosh ekaniga qaramay, tabiatan ulamo va sulaho muttaqiy mo'minlarga mehribon-u mushfiq bo'lganidan, Xo'ja Ilg'or qishlog'ining kadxudolug'lariga qatoridan joy olib ulgurdi. Harbu joh havaslaridan uzog'roqda umr kechirishni xush ko'rdi.

Musulmoni komil amirni muzofotda hamma hurmat qilar, yig'inar amirsiz o'tmasdi. Shayx doim elga hamdardlik ila qayishadigan, katta-kichikni teng ko'radigan oqibatli muridi bilan ichida faxrlanib yuradi.

Muridning kattagina hovlisi guzardan uncha uzoq emas... Guzar hamisha odam bilan gavjum, o'ng tomonida ellik yillar avval Muhammad Tarag'ayning otasi Amir Burkul tomonidan qurilgan masjid savlat to'kib turardi. Yonidagi baland minoradan har namoz oldidan daroz bo'yli, ozg'indan kelgan muazzin, bir ko'zi ojiz Normulla so'fining ovozi yargraganda, o'ktam azon kalomlari atrofga taralar, Sovuqbuloq, Qorasuv, Tezob, Javag'li, Qayrasolli, Qasnoqli qishloqlariga ham yetib borardi.

— Bobolarimiz yorug' yozlarda keng yaylovlarda emin-erkin yashashga o'rgang'onlar, bu chorvaga ham qulaydur, qorli qishlarni esa qishloqlarda o'tkazg'onlar. "Qishloq" — qishda yashaydigan joy ma'nosida keladi. Ayni shu jihat xalqni o'troq yashashga o'rgatadur ham, — dedi Shayx ot jilovini xiyol tortib.

Ular qishloqning katta ko'chasiga burildi. Shomga halli bir muddat bor... Chapda ham, o'ngda ham uylardan tutun chiqib turar, pishirilayotgan yoqimli ovqatlar, dog' qilinayotgan piyozlar hidi dimoqqa urilardi. Ko'ngilga yaqin manzaralar... Qaytgan podadan ko'tarilgan chang mag'rib shafag'ida g'ira-shira ko'rinadi. Qishloq chorva-molini boqqan cho'pon eshagini yetaklab, "oshi halo!" yig'ib yuribdi, har uying oldiga kelganda: "Osha-a-lo!" deyishdan charchamaydi.

Yo'l kunchiqishdan kunbotishga qarab cho'zilgan, sharqda, yiroqlarda Hisor tog'lariga oqarib ko'zga tashlanadi. Mag'ribda esa ayni shu yerlardan Turan pasttekisligi boshlanadi, zamin shirmolga qarab enib boradi. Shayx munajjim yo'l-yo'lakay Turkiston tarixidan, xonlar hayotidan ko'p narsalarni so'zlab berdi. Bari Shahsuvor munajjim uchun qiziq edi...

— Xo'ja Ilg'or qishlog'i tarixidan ham so'zlasunlar... — iltimos qildi Shahsuvor munajjim, yo'lga qarab qo'yar ekan. — Juda ko'hna qishloqmi, deymen.

— Ha, ko'hna qishloq, — dedi Shayx ot jilovini sal tortib. — Avval kichkina qishloqcha bo'lg'on. Sharqi va janubi to Qarshi shahrigacha turli hayvon-u maxluqlarga to'la keng biyday cho'ldan iborat edi. Muhammad Tarag'ayning uchinchi bobosi Amir Ilangiz barloslarni iyaritib kelg'ondan keyin odamlar ko'payib, Xo'ja Ilg'or qishlog'i kattarib ketdi.

Shahsuvor munajjim bosh tebratgancha indamay tinglab borardi.

Ular guring bilan bo'lib, guzarga yetib kelishdi. Guzardagi maydonchada qiyqiriq ovozlari eshitilar, bir to'p odamlar, olomon davra qurib nimanidir tomosha qilardi.

Bahorning ilk oyi hamalning yarmi, havo iliq, yozning isi kelib qolgan.

Shu payt kimdir olomon ichidan sirg'alib chiqib, Shayxlar tomonga kela boshladi. Bu helvagay oq choponga o'ralgan kelishgan yigit Muhammad Tarag'ay edi. Nur taratib turgan xiyol cho'zinchoq oq yuzi, keng peshonasi, o'ziga yarashgan charaqlagan katta-katta ko'zlari darhol kishi e'tiborini tortardi.

— Iye! Iye! Ana xolos... Bizning ko'chadan quyosh chiqibdi-ku! Xush kelibdurlar, pirim! — Muhammad Tarag'ay shunday der ekan, Shayx Shamsiddin Kulor to'ni etagini o'pib mamnun ko'zlariga surtdi. — Bundoq qarasam, pirim kelibdurlar... Qadamlariga hasanat-e!

— Xushvaqt bo'lsunlar, amirim! — Shayxning yuzlari yorishib, qo'y ko'zlariga yosh keldi. — Xushvaqt bo'lsunlar!

— E, yulduzchi ham shu yerdalar-ku! — munajjim bilan iliq ko'rishdi Muhammad Tarag'ay.

Muhammad Tarag'ay hovlisi keng-mo'lgina edi, uni bobosi Ilangiz-no'yon qurgandi, otasi Amir Burkul hovlini ikkiga bo'lib, yarmiga alohida darvoza tikladi va xotin-xalaj istiqomat qiladigan ichkari hovliga aylantirdi, tashqari hovli, ichkari

qarab borishar ekan, borliqni zulmat qoplaganini ko'rdilar. Tog' tomondan kishining bahri-dilini ochadigan yoqimli tun shabadasi esardi. Osmon yorug', chaman-chotir yulduzlarga to'la. Bag'oyat charog'on osmonning xuddi qo' cho'zsang yetadiganday yaqinligi Shahsuvor munajjimni hayratga soldi.

Xo'ja Ilg'orda rostdan ham osmon yaqin edi. Negadir munajjim nazdida bugun osmon o'ziga o'xshamasdi, unda ham qandaydir yashirin sir borday tuyulardi... Dunyoning bor yulduzlari yig'ilib kelgan chamasi. Ana Nohid, Surayyo, Bahrom, Mirrix, Suho, Mushtariy, Zuhul (uni Kayvon ham deyishadi) yulduzlari. Yana qanchalari... Hatto mag'rib yoqda doim ufq chetida qisib yuradigan (kechagina ko'rgandi) yorug' yulduz ham bugun tepaga kelib qolibdi. Esida, bunday manzarani bir bor Marog'ada ko'rgan edi.

— Tepamizda osmon tursa ham, qarayver-maymiz-da, — dedi Shayx. — Chamanzorni ko'ringiz! Voy-bayov... Tumonot yulduz-a! Bir boshimizda shuncha sir...

— Ha... Hammasi sirli. Haq so'zni dedilar, pirim. Allohning yaratib qo'ygan chamanzori... Tumonot... Va laqod zay-yannas sama

Nogahon Shahsuvor munajjimning titroq ovozi eshitildi:

— Ana! Yulduz uchdi!

Go'yo munajjim shuni kutib turardi. Hamma osmonga qaradi. G'arb tomondan uchib chiqqan yulduz nurlari yoy hosil qilib bir necha lahzadan so'ng so'ndi.

Muhammad Tarag'ay allanechuk bo'ldi, ammo hech narsani tushunmadi. Shahsuvor munajjim esa o'zida qandaydir o'zgarish seza boshladi, xuddi kutilmagan voqea yuz beradigandek... Odatda, u biron narsani bashorat qilmoqchi bo'lsa, shunday holga duch kelardi.

Kutilmaganda... kunchiqish tomonda ufq tagida kichik bir yulduz yarq etib ko'rindi. Yulduz asta-sekin ko'tarilib, osmon toqiga qarab intildi. U olamni yoritmoqchi edimi... Ko'tarilgan sari kattalashar, nurlari quyuqlashardi. Ammo yarim yo'lda manzilga yetmay... yog'i tugagan qorachiroqday o'chdi.

Bu g'alati hodisa edi. Lahzalar o'tib-o'tmay, janub tomondan yana bir yulduz nishona berdi, u ham jimir-jimirlab yiriklasha boshladi. Avvalgi yulduzdan sal balandroqqa chiqdi. Ammo birdan



Muhammad ALI,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

Ular hayratdan lol edilar. Yoki Muhammad Tarag'ay Qochuvli bahodirga o'xshab tush ko'rayotirmu ekan? Bu tushmi, o'ngmi?... Allohim! Bandalariningni o'zing kechir!..

Shahsuvor munajjim qo'llarini osmonga ko'tarib, o'z-o'zidan, ovozi o'qib bashorat qilishga tushdi:

— Osmon yoritqichlarining holati zamona-ning saodatli kunlarga yuz burganidan dalolat bermoqda. Parvardigori olamning karami bilan ayni shu tolebaxsh soatlarda osmon-u falakda Mushtariy va Mirrix yulduzlari bir-biriga duch kelib turibdurlar. — Osmonga tikilib turgan munajjimning ovozi birdan balandlashdi. — Ana, ana! Hov anovi, ikki yirik yulduzni ko'rayotirmusiz? Bas, alar baxt-tole yulduzi Mushtariy ila kuch-quvvat va shijoat timsoli Mirrixdur! Bu yulduzlar yuz yilda bir duch kelurlar. Purma'no-yu purhikmat kitoblarda donishmandlar qayd etgandurlarkim, shul kunlarda dunyoga ko'z ochgan o'g'il, qiron sohibi, saodatmand farzand, ya'ni Sohobqiron bo'lgay, jahongir bo'lgay! Zero, Sohobqironning toleyi xosiyatli Jadiy burjiga tushdi. Kimki shu burjdagi toleyida tug'lsa, hamma sultonlarga sarvar bo'lgay, har nekim murod qilgay, maqsadiga yetgay. Yulduzlar harakati ana shundan mujda berur... Yana Alloh bilguvchidur! Aqli qosirim derki, Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam hazratlari ham Sohobqiron erurlar, Mushtariy va Mirrix sayyoralarini uchrashgan lahzalarda dunyoga ko'z ochganlar. Marog'adagi majlisda tabarruk ustozlardan eshitgan edim...

Munajjimning bashoratomuz so'zlari hammani elitib qo'ydi.

Shayx Shamsiddin Kulor favqulodda hayratga tushdi. U yulduzlarning bunchalar o'yin ko'rsatishi bejiz emasligini, Xalqoi olam qandaydir mo'jiza belgilarini namoyon etayotganini ichki shuur bilan his qilardi...

Muhammad Tarag'ayni ham qattiq hayajon chulg'adi. Miyasida bir narsa yarq etdi! Axir, uning jufti haloli, yosh kelinchak Tegina Xotunning oy-kuni yetib turibdi, inshaalloh, o'g'il bo'lg'ay. Kecha-kunduz Parvardigordan tilab keladi. Shayx ham o'z muridini hamisha: "Xudo o'g'ilidan bersun!" deb duo qiladi.

Birinci farzandlari Qutlug' Turkonga yukli bo'lganida Tegina Xotunda unchalar o'zgarish sezilmagan. Tug'ruq ham oson kechgan. Bu safar u ikkizlikni ancha og'ir kechirmakda, damba-dam ishtahasi bo'g'ilib qoladi, hech narsa tilamaydi, tilagan narsasini olib kelsang, ta'bi o'zgarib, ko'ngli tortmay nari suradi, yuzlari va lablari shishinqirab ketganday. Barida qandaydir xislat bor.

Kechaning ikki uyqu pallasi o'tib qoldi. Bir-birini sog'inishib qolgan murshid va murid gurgungi qizib ketdi, oxiri yo'qday...

Vaqat allamahol bo'ldi. Nihoyat Muhammad Tarag'ay mehmonlarni joylab, hovliga chiqdi. Hech uyqusi kelmasdi. Aylanib, hovli chetidagi katta quduq yoniga borib tiz cho'kdi. Xiyla o'tirdi. Ichi sirga to'lib ketgan edi. Quduqdagi suvga sirini aytmoqchi bo'ldimi... Birozdan keyin turib, u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Keyin osmonga qaradi.

Hali mo'jizalar davom etardi. Parvardigorning osmoni xotirjam edi, Mashriq ham tinch, Mag'rib ham... Osmon yulduzlarga liq to'lgan, falak qo'ldan yangi yulduzlar kelganmi, hatto ufq taglarigacha hammayoqni yulduz bosib ketibdi, birona bo'sh joy yo'q...

Hayrati oshgan Muhammad Tarag'ay ko'kdan ko'z olmasdi. U Hulkan yulduzini topdi, yulduz osoyishta va xotirjam edi. Xayolan oltinchi va yettinchi yulduzlarni birlashtirib, chiziqtortdi... Hali Oltin qoziqqa bormoqchi edi, lekin boshqa gaplarga chalg'ib ketdi. Endi shoshilmay chiziqtortdi Oltin qoziq yulduziga qarab bora boshladi. Masofa xiyla bor edi, yuraverdi, yuraverdi, yuraverdi...

Nihoyat, yulduzga yetdi! Yetib qadam ham qo'ygan ediki... birdan ichkari hovliidan chaqaloqning olamlarga larza solganday... "Inga-a-a!". "Inga-a-a!". — degan sal yo'g'onroq ovozi eshitildi.

Muhammad Tarag'ayning ko'zlari yarq etib ochilib ketganday bo'ldi. Bemisl shodlik-quvonchdan mast, o'zini qo'ygani joy topolmay, beixtiyor ko'chaga chiqib ketdi. Yuzlaridan ko'z yoshlari oqardi. "O'g'il tug'ildi! Ovoz — o'g'il bolaniki! Endi uning o'g'i bo'li!.."



Tarixiy qissadan parcha

hovli paydo bo'ldi. O'sha paytlar Muhammad Tarag'ay besh yoshda edi. Ko'chadan alohida eshik bilan kiriladigan otxona chap tomonda hozir ham bor.

Xizmatkor otlarni otxonaga bog'ladi. Shayx bilan munajjimni tashqi hovlidagi zarrin eshikli muhtasham mehmonxonaga boshladi.

Mehmonlar qish ketgan bo'lsa ham, hali yig'ishtirib olinmagan sandal atrofidagi qizil gullari bo'rtib chiqqan yakandozlarga tiz cho'kdilar.

Shayx Shamsiddin Kulor o'rik ko'g'i gupirib turgan issiq sandalga oyog'ini uzatdi-da, o'tgan ulug'lar sha'higa, uch oygina avval dunyodan ko'z yumgan Muhammad Tarag'ayning padari buzrukvori Amir Burkul ruhiga bag'ishlab tilovat qildi. Hamma duoga qo'l ko'tardi.

— Keshlar tinchmi? — hol-ahvol so'rashga o'tdi Muhammad Tarag'ay.

— Allohga shukr, tinch. O'zining hifz-u himoya-sidadurbiz...

— Safardan qachon qaytdilar? — Shahsuvor munajjimga qaradi Muhammad Tarag'ay.

Munajjim yengil yo'talib oldi-da, dedi:

— Uch oycha avval.

— Safaringiz qabul bo'lsun!

— Murodingiz hosil bo'lsun! — minnatdorlik bildirdi Shahsuvor munajjim.

— Juda ajoyib inson edilar-da. Xudo rahmatiga olg'on bo'lsun, Allohning o'zi hakam... Ayni shu hovli Amir Burkul janoblari birlan kechgan suhbatlardan hazorchand bahramand bo'lg'onbiz, gurgunlar qizg'onbiz, nasib etmisha erdi... Amir Burkul Xo'ja Ilg'orda masjid qurishga kirishdilar... Mana shu Allohning uyida, ul zot birlan ko'p juma namozlarini esha-qo'sh bo'lib o'qib'onbiz...

Suhbat toboxra quyuqlashib borardi. Shahsuvor munajjim so'zlarga qo'shilmay o'tirardi. Shayx bunday diltortar suhbat mudom davom etishiga, hech qachon oxiri bo'lmasligiga ishora qilib, piri Shuhravardiyniing porlash, munavvarlik haqidagi ta'limotini esladi:

— Nur cheksizdir, zero, oxiri yo'qdir, — dedi mamnun holda.

Xufton namozini o'rinlatishgach, shu paytgacha indamay o'tirgan Shahsuvor munajjim so'zga og'iz ochdi:

— Shayx hazratlari! Havo musaffo, toza havolardan nafas olaylik, bir ko'klarga boqaylik, osmon sayriga chiqaylik. Osmon ham mo'jiza.

Har kuni yulduzli osmonni kuzatish munajjimning odati edi.

Taklif ma'qul keldi. Katta ko'chaga chiqdilar. Qishloq tun yostig'iga bosh qo'yardi. Tezob tomonda itning o'qtin-o'qtin hurishi jimlikni buzib turardi. Shayx, munajjim va amir kunchiqishga

addunya bi maso biyxa va ja'alna ha ruju mal lishshaya tiyn. Chindan ham, bularning bari — Parvardigorning siz-u bizga nurafshon bo'lsin, deb yoqib qo'ygan chiroqlari. Ana bu — Somon yo'li. U yo'lda yulduzlar bag'oyat ko'p, ko'rdingizmi, g'uj-g'uj bo'lib to'planishgan. Qaygadir ketishmoqchimi... Aqli qosirim derki, hammasi, chamasi, jannat tomonga qaysi yo'l bilan borishni maslahat qilishayotir... — jilmaydi Shahsuvor munajjim mamnun. U xuddi sahardan to shom bog'idan chiqmaydigan, o'zining shinam gulbog'ini ko'z-ko'z qilayotgan, ekan niholi bilan maqtanayotgan mirishkor bog'bonga o'xshab ketdi, yulduzlar haqida yayrab hikoya qilardi. — Hov anovi uch yulduzni ko'rdingizmi? Uning oti Tarozi. Osmon posangisini tutib turadi. Mana bunisi, Hulkan yulduzi, Surayyo yulduzi ham deymiz, Yetti og'ayni deb ham ataymiz. Uzoq safarlarga chiqqanlarga eng birinchi ko'makchi, charog'bon, sahlardan o'tganda, yo'ldan adashganlarga yo'l ko'rsatuvchi yo'ichi yulduz...

— Yo'ichi yulduz? Qandoq yo'l ko'rsatadur? — so'radi butun vujudi bilan tinglayotgan Muhammad Tarag'ay ko'l toqining tagida osilib turgan yetti yulduzga tikilgancha.

— Juda oson... Yo'lni adashmay topish uchun, Hulkan qara turib, hu anovi, yuqoridan sanab tushganda oltinchi va yettinchi yulduzlarni xayoliy to'g'ri chiziqtortib bilan bog'layisiz va shu chiziqtortib bo'ylab boraverasiz... Chiziqtortib bir nursiz yulduzga olib boradi. U yulduz nursiz emas, shunday tuyuladi, uni ko'rishga ko'zimiz xiralik qilar. Uning nomi — Oltin qoziq! Temir qoziq ham ataydilar! U yulduzlar ichida eng qoim, sobit yulduzdur, hech qachon o'z o'rnini o'zgartirmaydi, hech qachon so'nmaydi... Inchunin, Oltin qoziq deydi. Shu turishda uning yuqori tomoni — shimol bo'ladi, qarama-qarshi tomoni — janub, chap tarafi — g'arb, o'ng tarafi — sharqdir... Dunyo kezuguvchilar gapirishadi, sahroda turganigizda to'rt tomoningiz ham bir xil — qibla bo'lib tuyuladi. Qayyoqqa yurishingizni bilmay boshingiz qotadi. Shunda Hulkan yulduzi ish beradi...

Muhammad Tarag'ay ilgari mayda-chuyda tashvishlar bilan bo'lib, bunga diqqat ham qilmagan, yulduzli osmonga yaxshiroq tikilib qaramagan ham ekan. Osmon — dunyolarning dunyosi ekan! Uning chegarasi bormi? Yo Rabbi! Son-ming yulduzlar, ilohiy yoritqichlar, sirli samoviy fanorlar jimir-jimirlab qiladi. Shunchalar mo'jizani yaratib qo'ygan qodir Xudoga, yulduzlar-u sirli yoritqichlarni osmonning havorang baxmaliga chiroyli qilib taqib chiqishga erinmagan g'affor-u zuljalol Parvardigori olamga hamd-u sanalar bo'lsin...

Tun-kecha, zimiston. Yoqimli shabada mayin esishda davom etardi.

so'ndi...

Ufqda to'rtinchi yulduz jilvalar namoyon qila boshladi. Uning miltirab nur sochib turishi bag'oyat yoqimli... U ham ko'k toqiga qarab borardi. Biroq, yetolmay... so'ndi.

Shu palla kunbotishdan va kunchiqishdan ikki yulduz barobar ko'k toqiga o'tildi. Ammo yarim yo'lda so'ndilar.

Shayx Shamsiddin Kulor ham, Muhammad Tarag'ay ham yulduzlar sehriga maftun bo'lib qolgan edi. Voqeaning sirli yuz berayotgani sababini hech kim bilmasdi. Endi qayoqdan yulduz chiqarkin, deya osmonga alanglashardi.

Tuyqusdan Muhammad Tarag'ayning tafakkuri yorishganday bo'ldi! U esladi: uning sakkizinchi bobosi Qochuvli bahodir xuddi shunday tush ko'rgan, qo'ynidan bir yulduz uchib chiqqan va so'ngan ekan. Bunday hol yetti marta takrorlanibdi. Sakkizinchisida katta yulduz balqibdi. U butun olamga nur taratibdi! Undan bir necha yulduzlotilib, namoyon bo'libdi va har biri bir o'lkani yoritir emish...

Qochuvli bahodir darhol otasi Tumanaxon qoshiga yo'l olibdi. Chunki otasi tushlarni aniq va ravshan ta'biray oladigan valiy inson sifatida mashhur ekan.

— Hikmatli tush ko'ribsen, o'g'lim! — mamnun debdi Tumanaxon. — Baski, mening naslimdan yetti avlod birin-ketin dunyoga kelib, kam-kam podshohlik qilib o'turlar. Ammo sakkizinchi marta, ya'ni ul buyuk yulduz balqiganda, naslimizdan kimdir jahongirlik tug'ibni baland ko'targay, ko'p mamlakatlarga podshoh bo'lgay!

Bu naql avloddan-avlodga o'tib keladi. Mabodo, mana bu yulduz uchishlari? Nang'o'sha tushga aloqasi yo'qmikini? Muhammad Tarag'ay o'yg'a cho'mdi.

Yana bir jihati ham g'alati: Muhammad Tarag'ay yettinchi avlod hisoblanadi. Keyingi avlod — sakkizinchi-ku! Ajabo...

Yulduzlar tomosha ko'rsatishda davom etardi.

Shu palla Shahsuvor munajjim favqulodda javavada qaltiray boshladi. Muhammad Tarag'ay unga qarab hol so'ramoqchiydi, ulgurmasdi, birdan... sahna o'rtasidan sakkizinchi yulduz otilib chiqdi!

Yulduzning milt-milt qilishi, yorqin jimirlashi osmonga juda ham yarashib turardi. U asta-sekin kattalashdi, tobora nurlari tinqlashdi va nihoyat, porloq yulduz osmon toqini zabt etdi! Uning yop-yorug' nurlariga ko'zlar chidamasdi. Nur yulduzdan toshib chiqib olamni yoritib yubordi!

Shayx Shamsiddin Kulor ham, Muhammad Tarag'ay ham boshqa olamlarga borib qolganday sezishardi o'zlarini. Bir kechada shuncha yulduzning ajabovur uchishlarini hali ko'rishmagandi. Nima bo'lyapti o'zi?..



Boshlanishi 1-sahifada.

“Jamiyat” esa odamlar uyushma-sini, ya’ni ko’pchilikni bildiradi. Shuning uchun inson – ham biologik, ham ijtimoiy mavjudot. Har bir shaxs – jamiyat a’zosi. Jamiyat – g’oyat murakkab ijtimoiy tizim. U odamlar o’rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy va hokazo munosabatlarning, tarixan tarkib topgan oila, jamoa, millat, din, davlat, axloq va hokazolarning majmuasi hisoblanadi.

Jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini bir-biriga qarama-qarshi qo’yish ham, ulardan birini muhim, boshqasini nomuhim deb hisoblash ham birday xato. Chunki jamiyatda yuqorida sanalgan sohalar bir-biri bilan chambarchas bog’liq.

Insonning jamiyatdagi o’rni va mavqeyi qancha yuqori bo’lsa, taraqqiyot uchun shuncha keng yo’l ochiladi.

Jamiyat deganda, asosan, bir mamlakat xalqi tushuniladi.

Demokratik jamiyat bozor munosabat-lari vositasida boshqariladi. Davlat iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga yordam beradi. Bunda ijtimoiy raqobat, manfaatdorlik iqtisodiy rivojlanishning muhim qonuniyati sifatida amal qiladi. Demokratik davlat jamiyat ma’naviy hayotini takomillashtirish, jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ilm-fanni taraqqiy ettirish haqida g’amxo’rlik qiladi. Davlat jamiyat ma’naviyatining homiysi sifatida ta’lim-tarbiya sohasida tub islohotlarni amalga oshiradi.

Jamiyat taraqqiyotini huquqiy davlatsiz aslo tasavvur etib bo’lmaydi. Davlat qonunlarni hayot ehtiyojlariga moslash, tinimsiz takomillashtirib borish orqali fuqarolarning o’z aqli, iqtidori, salohiyatini yanada unumliroq namoyon etish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Har qanday taraqqiyot uchun obyektiv va subyektiv omillar uyg’unligi yuz berishi kerak.

Navoiy zamonasida Xuroson davlati-ning podshohi Husayn Mirzo Xorazmni rivojlantirish maqsadida Hirotidan uch ming xonadonni ko’chirmoqchi bo’ladi. Navoiyga u “muqarrabi shohiy” unvonini bergan edi. Bu unvonning imtiyozi shu ediki, u hukmdorga bir masala yuzasidan to’qqiz martagacha murojaat qilish huquqiga ega edi. Ulug’ shoir va mutafakkir shuncha xonadonning vatanidan bevaton qilinishiga bir necha karra qarshi turadi. Oxiri bir ming xonadon ko’chiriladi. Bu nima siyosat edi? Bu ma’lum ma’noda iqtisodiy sanatsiya siyosati edi.

O’tgan asrning 30-yillarida Farg’ona vodiysi viloyatlaridan dehqonchilik mada-niyati yuqori bir qism aholi Surxondaryo viloyatiga majburan ko’chirilgan. Yoki bir zavod quramiz-u, ishchilarini boshqa davlatdan olib kelamiz. Yoki Vobkent tumanidagi ko’p kafelarning oshpazlari, ayniqsa, kabobpazlari aynan G’ijduvon tumanidan kelib ishlaydi.

Bugun Toshkent juda katta mehnat bozoriga aylangan. Kamina bu yerda mamlakatimizning qaysi mintaqa aholisi qanday sohalarda ko’proq ishlayotganini aytmayman. Birinchidan, har qancha haqiqat bo’lmasin, kimlargadir shu statistika yoki faktning o’zi yoqmaydi, ikkinchidan, o’qituvchi bilan tinglovchi o’rtasida noo’rin va keraksiz bahs boshlanib ketishi mumkin. Lekin bugun, masalan, Buxoro viloyati fermerlari yetishtirgan o’riklarini daraxt-

daraxt hisoblab, Farg’ona vodiysidan kelgan oilalarga sotayotgani, ular bir oy-ikki oy shu yerda yashab, o’rikarni terib, bozorboq qilib quritib, qoqi qilib olib ketayotgani fakt. Nega? Farg’ona vodiysida shu mehnat turi rivojlangan.

Yana bir ko’z yumib bo’lmas statistikani keltiraman. Har yili bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirishi mamlakatimiz tuman va shaharlari bo’yicha hisob-kitob qilinadi. 200 ga yaqin tuman va shahardan dastlabki 20 o’rinni egallagani e’lon ham qilinadi. Shu 20 taning 7 tasini – Buxoro, 3 tasini Navoiy viloyati egallaydi. Demak, o’qish bo’yicha ilg’or tuman va shaharlarning teng yarmi shu ikki viloyat hududiga to’g’ri kelyapti. Kamina tug’ilib

qiladi. Tabiiyki, ular da tarbiyalangan bolalarning oliy ta’lim tizimiga o’qishga kirishga qiziqishi ko’proq bo’ladi.

Shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg’un-ligiga erishish hech bir zamon va makonda ham oson kechmaydi. Xo’sh, shaxs va jamiyat manfaatlari uyg’unligini qaysi mezonlar asosida belgilaymiz? Albatta, qonun asosida. Qonunning eng asosiysi esa – Konstitutsiya. Konstitutsiyani bilmay turib shaxs va jamiyat munosabatlari mohiyatiga aslo yetib bo’lmaydi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 10 ta moddasida inson qadri bilan bog’liq “qadr”, “qadr-qimmat”, “qadriyat”, “milliy va umuminsoniy qadriyatlar”, “oilaviy qadriyatlar” tushunchalari uchraydi.

INSON QADRI VA JAMIYAT:

DIALEKTIK BIRLIK ZARURATI



o’sgan Vobkent tumani bu sanoqda 10-o’rinni egallagan.

Abdurauf Fitrat XX asr boshida Buxoroda 33 ta oliy, 39 ta o’rta va 100 dan ortiq quyi toifadagi madrasa bo’lganini yozadi. Markaziy Osiyoning boshqa biror shahrida barcha ko’p madrasa bo’lmagan. Keyin bu yerda madrasalar asrlar mobaynida faoliyat olib borgan. Sovet davlati yangi maktablar ochganda Buxoro va uning atroflarida madrasa ko’rganlar, madrasa ko’rganlardan ta’lim olganlar muallimlik qildi. Mana, bir asrdan oshyaptiki, bu hududda shu qadim ilmning ta’siri sezilib turibdi. Bu – birinchi omil. Ikkinchi omil shuki, Buxoro qadimdan arabiy-forsiy-turkiy tamaddunlar uyg’unlashgan (sintezlashgan) makon hisoblangan. Tamaddunlar uyg’unlashganda taraqqiyot tezlashadi.

Xo’sh, o’qish uchun obyektiv imkoniyatlar poytaxtda eng ko’p emasmi? Yo’q-da. Toshkent shahrida oliy ma’lumot olmay turib ham ish topish, yaxshi yashab ketish mumkin-da. Toshkent shahridan bu yigirmatalikka birgina Mirzo Ulug’bek tumani kirgan, xolos. Nega aynan shu tuman? Chunki bu yerda Akademiya shaharchasi bor. Ko’p-ko’p olimlar oilalari istiqomat

13-modda shunday jaranglaydi:

“O’zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko’ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi”. Demak, inson qadr-qimmat, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va boshqa ajralmas huquqlari qatori, oliy qadriyat hisoblanishi qat’iy belgilangan. “Qadriyat” so’zi Konstitutsiyada qayd etilimi, bas, u endi faqat ma’naviygina emas, balki huquqiy kategoriya ham hisoblanadi. Xo’sh, u aynan nimani anglatadi?

“Qadriyat – inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadriini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”.

Fanda qadriyatshunoslik alohida soha hisoblanadi. U xalqaro atama sifatida “aksiologiya” deb ataladi. Qadriyatshunoslar “qadriyat” kategoriyasidan har qanday narsa, shu jumladan, insonning ijtimoiy qadriini, ahamiyatini ifodalaydigan umumiy va universal kategoriya sifatida foydalanadi.

Sodda qilib, qadriyatni “ulug’lanadigan narsa” deb tushunsak ham xato qilmaymiz.

26-modda inson qadr-qimmat daxlsizligini kafolatlaydi:

“Insonning sha’ni va qadr-qimmat daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo’lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo’ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g’ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o’tkazilishi mumkin emas”.

Bir hayotiy misol keltiray. Shaxsni

jamiyat manfaatini o’ylab ish qilishga da’vat etish mumkin. Lekin uni hech kim bunga majbur qila olmaydi. Hatto, dam olish kuni o’tkazilgan hasharga chiqmagani uchun ham xodimni jazolash haqida qonun yo’q. Yillar burun nodavlat telekanallardan biri har kuni ayni paytda beriladigan axboriy dasturida ekranda O’zbekiston televideniyechiligi tarixida hech uchramagan mana bunday qaydni yozdi:

“Bu yerda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi falon bo’limi mudiri Falonchi Falonchiyaning jargonlar haqidagi intervyusi berilishi kerak edi. Ammo u bundan bosh tortdi”.

Ketidan suxandon o’sha bo’lim mudirining lavozimiga mos yoki mos emasligi o’ylab ko’rilishi kerakligi haqida fikr ham bildirib o’tdi.

Kamina o’sha Markaz rahbari o’rinbosari bo’lib ishlar edim. Surishtirib, aniqlasak, haqiqatan ham, bu xususiy telekanalda bo’lim mudiriga qo’ng’iroq qilinib, jargonlar haqida intervyu berish taklifi aytilgan, lekin mudira bu ayol kishi chiqib muhokama qiladigan mavzu emasligini aytib, taklifni rad etgan ekan. Bor gap shu.

To’g’ri, nodavlat telekanal – jamiyat manfaati uchun jargonlarning salbiy jihatlarini tahlil qilishga haqli. Ammo Konstitutsiya bo’yicha shaxsning biron-bir ommaviy axborot vositasi orqali chiqish qilish-qilmaslikni o’zi hal qilish huquqiga hech kim daxl qila olmaydi. Bu – uning ixtiyoridagi masala.

Agar telekanal rasmiy xat bilan Markazdan shu haqda fikr bildirishni so’ragan bo’lsa, javob talab qilishga haqli edi. Shunda ham Markaz: “Bu masalada fikr bildirishni lozim topmadik”, tarzida javob qaytarishi mumkin. O’shanda ham rahbar yoki rahbar o’rinbosari javob xatga imzo chekadi, bo’lim mudiri emas.

Bordi-yu, telekanal bilan Markaz o’rtasida shu mavzuda chiqish qilish uchun xodim berish haqida shartnoma tuzilgan va aynan shu xodim ijrochi qilib belgilangan bo’lsa ham boshqa gap edi. Yoki Markaz rahbarining Falonchi Falonchiyaning falon telekanalda jargonlar bo’yicha chiqish qilishi haqida buyruq chiqarilgan bo’lsa edi,

to’ldirilgan sharhlarni yubordi. Bu Janubiy Koreyadagi shimoliy koreyalik qochqinlar havo sharlari yordamida KXDRga yuborayotgan targ’ibot varaqalariga javoban qilingan edi.

NAYROBIDA NOROZILIK

Keniyada Nayrobidagi politsiya hibsxonasida 31 yoshli blogger Albert Omondi Ojuangning halok bo’lishi ortidan ommaviy norozilik namoyishlari avj oldi. Bu haqda “BBC” xabar bermoqda.



Erkak yuqori lavozimli politsiya xodimini tanqid qilgani uchun qo’lga olingan. U o’zining tug’ilgan shahri Xoma-Beyda hibsga olinib, mahalliy tergov o’rniga poytaxtga olib ketilgan va u yerda og’ir bosh jarohatlaridan vafot etgan. Ekspertiza xulosalariga ko’ra, blogerning boshiga zarba yetkazilgan va uning o’limi, ehtimol, shuning oqibatida yuz bergan.

Politsiyaning rasmiy bayonotiga ko’ra, Ojuang o’z boshini kamera devoriga urib,



Sultonmurod OLIM,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
professori

bo’lim mudiri majbur bo’lar edi.

Nodavlat telekanaldagi reja amalga oshmagan uchun boshqa bir tashkilot vakili aybdor bo’lmaydi-ku. Shunday ekan, bu holatda inson qadr-qimmat kamsitildi. Qonunga binoan, ertasiga shu ko’rsatuvning o’zida telekanal fuqarodan kechirim so’radi.

Chunki 31-moddaning 1-bandida: “Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo’lish, o’z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega”, deb yozib qo’yilgan.

52-modda o’qituvchilar haqida: “O’zbekiston Respublikasida o’qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog’lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o’qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o’sishi to’g’risida g’amxo’rlik qiladi”.

60-modda barcha fuqarolarga majburiyat yuklaydi:

“Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburlirlar”.

Xullas, inson – jamiyat a’zosi. U jamiyatdan ayrilgan holda yashay olmaydi. Ammo har bir shaxsning jamiyat bilan bog’lanishi shakllari ham, yo’llari ham, darajalari ham har xil bo’ladi.

Inson qadri va umumjamiyat manfaatlarini, ko’rib o’tganimizdek, qonunlar tartibiga soladi. Inson qadri va umumjamiyat manfaatlari muvofiqlashtirish ham majburiylik, ham ixtiyoriylik qat’iyatlariga suyanadi. Inson qadri va umumjamiyat manfaatlarini yuksak darajaga ko’tarish tizimli tarbiya va targ’ibot asosida amalga oshiriladi.

Shuni aslo unutmaslik kerakki, insof huquqiy kategoriya emas. U – ma’naviy fazilat. Hatto, olijanoblik belgisi hisoblanadi. U – vijdon bilan ish tutish tuyg’usi, hayotda, ishda, boshqalarga munosabatda halollik va to’g’rilikni anglatadigan tushuncha. Ziddi – insofsizlik. Ma’naviy tarbiyada kishilarni insofqa chaqirish mumkin va kerak. Biroq insof zinhor-bazinhor huquqiy kategoriya bo’la olmaydi.

Tahlillarimizdan anglashilib turibdiki, inson qadri va umumjamiyat manfaatlari dialektik birligiga erishish komil shaxs tarbiyasi va xalq ravnaqi uchun o’ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

JAHON AYVONIDA

YANA SANKSIYA

Yevropa Ittifoqi Rossiyaga qarshi yangi sanksiyalar paketini e’lon qildi. Bu haqda “CNN” xabar berdi.

Ittifoqning fikricha, Moskvaning Ukrainaga



qarshi har kungi hujumlari uning tinchlikdan manfaatdor emasligini ko’rsatmoqda.

Yangi sanksiyalar to’plami Kremlining neft va gaz qazib olishdan pul ishlash qobiliyatini nishonga olgan. Bu Rossiya 2022-yilda Ukrainaga qarshi keng ko’lamli bosqinni boshlaganidan beri 18-sanksiya hisoblanadi.

Sanksiya Rossiya nefti eksporti narxining yuqori chegarasini bir barrel uchun 60 dollardan 45 dollargacha pasaytirishni ko’zda tutadi. Bundan tashqari, u uchinchi mamlakatlardagi Rossiya banklari va moliya institutlari bilan operatsiyalarni to’liq taqiqlashni o’z ichiga oladi.

MUSIQACHI TRAMP

AQSh prezidenti Donald Tramp bolaligida nay chalganini aytib, sozanda bo’lishi mumkinligi

haqida hazillashdi. Biroq otasi bunday kasb yo’lini ma’qullamaganini bildirdi.



“The New York Post” gazetasi podkastida prezident bolaligida ota-onasi uni maxsus qobiliyatini baholash uchun sinovlarga olib borganini eslatdi.

“Sinov o’tkazuvchilar otamning oldiga kelib: “O’g’lingizning ajoyib qobiliyati bor, u zo’r musiqachi bo’lishi mumkin”, deyishdi. Ammo bu otam eshitisini istagan gap emasdi”, deydi Tramp.

QADIMIY DUNYO TOPILDI

Sharqiy Antarktidada 34 million yildan ortiq vaqt davomida tegilmagan ulkan qadimiy landshaft bir mildan ortiq qalinlikdagi muz qatlami ostidan topildi. Bu haqda “Daily Mail” xabar berdi.



TARG’IBOT ESHITTIRISHLARI

TO’XTATILDI

Janubiy Koreya hukumati ikki tomonlama munosabatlarni yaxshilashga intilish maqsadida Koreya xalq demokratik respublikasi chegarasida joylashgan radiokarnaylar orqali Pxenyanni tanqid qiluvchi dasturlarni efirga uzatishni to’xtatdi. Bu haqda “Yonhap” agentligi xabar berdi.



Eshittirishlar o’tgan yilning iyun oyida Pxenyann Janubiy Koreyaga axlat to’ldirilgan havo sharlarini jo’natganiga javoban qayta boshlangandi.

2024-yil may oyining oxiridan boshlab Shimoliy Koreya Janubga minglab axlat



Boshlanishi 1-sahifada.

Biz bu dunyoning o'tkinchiligini, inson umri bilan o'lchaymiz, adabiyotning zamirida ham inson falsafasi, hamisha uning g'olib va mag'lub qarashlari aks etib turadi. Doimo vaqtning, umrning ko'lamini odamiyat tarozisiga solib xulosa yasaymiz.

Tog'lar bizning nazarimizda boqiy umr suradigandek tuyuladi, ammo shoir aytadiki, bu tog'lar ham o'z umrini yashab o'tayotir. Demak, Yer shari – ona zamin ham koinot uzra umrguzaronlik qilmoqda...

Aytgancha, bu galgi safardan maqsad qo'rg'on oshib, Qirg'izistonga borish edi. Turkiy xalqlarning boshini biriktirib, ko'nglini qovushtirib turgan TURKSOY xalqaro madaniyat tashkilotining taklifi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining qo'llab-quvvatlashi bilan O'sh shahrida qirg'iz xalqining zabardast shoiri Jolon Mamitov tavalludining 85 yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan "Yashil olam" turkiy dunyo yosh shoirlari festivali sari yo'lga chiqqandim.

...Poyezd bir maromda ildamlar, tog'lar dalalarga, dalalar qishloqlarga ulanardi. Saratonning bag'riga singib borayotgan javzo ko'z yosh qilayotgandek yomg'ir savalab, tuproqning isi dimog'ga uriladi. Vodiyning o'zga cha fayzi bor, bir qarich ham yerning qarovsiz qolganini ko'rmasiz. Yastanib yotgan dala-yu adirlarga ko'rk



bag'ishlab turgan ekinlar mehnatkash xalqqa nasiba tutib, barq urib unib-o'lmoqda.

Poyezd perronga kelib to'xtaganida o'zimni xayoldan tiyib, sergak tortdim. Gavjum vokzaldan chiqib, sertakalluf kirakashlar bilan uzoq-yuluq muro-saga erishib, ulovga o'tirdim-da, "Do'stlik" chegara postiga qarab ketdim.

Rostini aytsam, ichimda biroz hadik bordek, aslida hadik ham deb bo'lmaydi: yaqin yillarda had oshib o'tmaganim uchun, chegarada ortiqcha charchoq va qiyinchiliklarga ro'baro kelamanmi, deb o'yladim. Xayriyat, allaqachon tuplorini gijinglatib, chegara-o'tish postining qarshisida meni kutib turgan hamrohlarimga yo'liqdim.

“MEN HAM KO‘PRIK QURAJAKMAN SHE‘RDAN YONIB...”

"Do'stlik" chegara posti shinam, o'tuvchilar uchun qulay sharoitlarga ega manzil ekan. Hech bir to'siqsiz, savol-so'roqsiz yurt darvozasidan chiqdik. Qardoshlarimiz ham shu kabi bag'rini ochib kutib oldi. Bo'larkan-ku, deyman, zavqim ichimga sig'may, avvallari postlarda savol-so'roq qilib, yuk-yovingni titib tekshirib, gumonsirab ko'zlarimga boqqanida, o'zingdan shubhalanib, nigohingni olib qochardim...

Qardoshlar bo'g'irsoq bilan bol tutib, do'mbira chertib qarshiladi. Kichik marosimda O'zbekistonning Qirg'izistondagi konsulligi vakillari, O'sh shahri hokimligi mutasaddilari, shoir-yozuvchilar, madaniyat sohasi vakillari qatnashdi. Qirg'iz xalqining termalari, o'zbek xalq qo'shiqlaridan parchalar do'mbira jo'rligida yo'l bo'yi ham yangrab ketdi...

Adabiyot – millat-u xalqlarni bir maqsad-u maslak yo'lida birlash-tiradigan katta kuch. Turkiy davlatlar o'r'tasidagi siyosiy, iqtisodiy munosabatlarining yaxshilanib borishi adabi-

ravishda takomillashtirish zarur, deb hisoblayman. Shu maqsadda Tashqi ishlar va Madaniyat vazirlarimizga Boku sammitiga qadar tegishli takliflar ishlab chiqish vazifasini topshirsak, to'g'ri bo'ladi, deb o'layman", deya ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda davlatimiz Rahbarining tashabbusi bilan barcha sohalarda bo'lgani kabi, adabiyotda ham yaqin hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. O'zbekistonda "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik to'plamning nashr etilishi turkiy tili mam-lakatlari birligini mustahkamlashga ulkan qadamdir. Qirg'izistonning O'sh shahrida TURKSOY xalqaro madaniyat tashkilotining tashabbusi bilan o'tkazilgan "Yashil olam" turkiy dunyo yosh shoirlari festivali ham shunday do'stona aloqalarning hosilasi bo'ldi.

Jolon Mamitov tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan xalqaro she'riyat festivalida O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkiya, Vengriya, Turkmanistondan kelgan yosh shoirlar jam bo'ldi. Asosiy tadbirlar O'shda atoqli shoir, publitsist va tarjimon Jolon Mamitovga o'rnatilgan yodgorlik hamda shoir nomidagi bog'ning ochilish marosimi bilan boshlandi.

Jolon Mamitov nafaqat qirg'iz xalqining balki, turk xalqlari adabiyotining ham faxridir. Uning she'rlari turk, ozar, qozoq, turkman tillariga ham tarjima qilingan. Jumladan, o'zbek tiliga ham atoqli shoir Tursunboy Adashboyev tomonidan o'g'irilgan. Jolon og'aning she'rlari shunday quyma yozilganki, tarjimada ham bu yengillikni his qilaisiz.

Jolon Mamitov 1940-yilda Qirg'izistonning Qorasuv tumanida tug'ilgan. Bor-yo'g'i 48 yil umr ko'rgan. Mana shu qisqa hayoti davomida shoir asrlarga tatigulik asarlar yaratdi, qirg'iz she'riyatining yorqin yulduzi bo'lib porladi. Uning o'nga yaqin she'riy to'plamlari nashr etilgan va adabiyot ixlosmandlarining olqishiga sazovor bo'lgan. Mohir mutarjim Jolon Mamitov jahon adabiyoti vakillari F.Tyutchev, A.Fet, V.Mayakovskiy, M.Slutskiyning ayrim asarlarini qirg'iz tiliga tarjima qilgan.

O'sh davlat universitetida festivalning rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda Qirg'iziston Respublikasi Davlat kotibi Marat Imanqulov Qirg'iz Respublikasi Prezidentining festival ishtirokchilariga tabrigini o'qib eshittirdi. Marosimda TURKSOY xalqaro tashkiloti Bosh kotibi Sul-



Jolon Mamitov (1940–1988)

ton Rayev, shuningdek, madaniyat va jamoat arboblari so'zga chiqdi. Kunning ikkinchi yarmida qirg'iz xalqining ma'naviy merosiga aylan-gan shoir she'rlari asosida "Olovga ishqim tushdi" va "Yashil olam" nomli she'riyat kechalari bo'lib o'tdi.

Safarning ikkinchi kunida O'sh shahrining toji bo'lib qad rostlab turgan Sulaymon tog'iga sayohat uyushtirildi. "Sulaymon-Too" milliy tarixiy-arxeologiya muzeyi meh-monlarda katta taassurot qoldirdi. Qadamjo kamida uch-uch yarim ming yillik tarixga ega, deydi olimlar.

O'sh milliy drama teatrida bo'lib o'tgan tantanali kecha shahar aholisi va mehmonlar qalbida bir umr muhrlanib qoladigan bo'ldi. Turli davlatlardan kelgan qardosh yosh shoirlar TURKSOY xalqaro tashkilotining sertifikatlari bilan taqdirlandi.

Festivalning oxirgi kunida ishtirokchilar baland va olis tog'lar bag'rida joylashgan "Qora qo'y" yaylovlariga sayohat qildi. Tog'lar bag'ridagi o'tovlarda adabiy suhbatlar, musho-iralar davom etdi.

Osmono'par tog'lar bag'rida kech-gan lahzalar xotiralarga muhrlandi. Viqorli cho'qqilarga bo'yilashib uchayotgan burgutlar, maysalarga qo'ngan yomg'irlar, hayotga shahd-u shijoati bilan rag'bat berib turgan yilqi uyurlarining dupuri, sharqirab oqayotgan daryoning shiddati – butun tabiatning go'zalligi va mahobati ijodkorlarni ilhomlantirib yubordi.

Mana shunday kezda yana Jolon Mamitovning satrlari dilingdan ko'-chib, tilingda beixtiyor yangraydi:

Men ham ko'priq qurajakman she'rdan yonib...

Faxriddin HAYIT,
O'zbekiston va Qirg'iziston
Yozuvchilar uyushmalari a'zosi

MAKTUB



BEHBUDIY BILAN SUHBAT

Darslar rasman to'xtagan bo'lsa-da, o'qituvchi uchun bola qalbi va tafakkuri bilan muloqot hech qachon tugamaydi. Chunki tarbiya va ma'rifat faqat sinfxonalarda, jurnal va dastur asosida kechadigan jarayon emas. U hayotning o'zi kabi uzluksiz, rangin va qiziqarli bo'lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, har bir fasl bola qalbiga yo'l topishning o'ziga xos fursatidir.

Chinakam ustoz "tanaffus" davrida ham bola bilan ishlashga, uning dunyosiga hamroh bo'lishga intiladi. Ayniqsa, bu yilgi ta'til biz uchun ma'rifatparvarlik misollarini yoshlar qalbiga yetkazish yo'lida yangi ruh, ilhom bag'ishlamog'da. Bu borada Prezidentimizning "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risi-da"gi qarori ustozlarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, darslarimizda buyuk jadidning hayoti va merosini yoshlar qalbiga chuqur-roq singdirish uchun yangidan yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Qaror doirasida belgilangan ilmiy-ma'rifiy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar va madaniy loyihalar Behbudiy shaxsiyati, uning hayot yo'li va faoliyati misolida jadidlik g'oyalari yosh avlodga ta'sirchan, zamonaviy usullarda yetkazishda mustahkam zamin yaratmoqda.

Adabiyot fani o'qituvchisi sifatida har gal darsga kirib, o'quvchilar bilan Behbudiy haqida suhbatlashar ekanman, o'layman: "Men hozir shunchaki ma'lumot bermayapman, ularga shaxsiyat, adolat, fidoyilik, bilim va bunyodkorlik ruhini uqtiryapman". Negaki, Behbudiy asarlarida mana shu qadriyatlar mujassam. Qolaversa, biz pedagoglar millatning oyoqqa turishi, mutaraqqiylar qatoriga chiqishi uchun aynan jadid bobolarimiz fidoyiligidan ibrat olishimiz kerakmasmi?! O'sha g'oyat murakkab, chigal sharoit-da, bir tomondan mustamlakachi va bolshevoylar, ikkinchi tomondan qadimchi va mutaassiblar miltig'-u qamchi o'q'talib tahdid solib turgan bir zamonda oydinlarimiz bolajonlarga soatbay dars o'tganmidi? Ularda ta'til yo tanaffus bo'lganmidi? Yo'q, ular o'z o'quvchilaridan hech qachon ruhiy va ma'naviy rishtalarni uzmagani, saboqlarini mudom qalbbay olib borganlar. Chunki millat qismati omonat

turgan qaltis bir paytda ilm-ma'rifatni paysalga solish kechirilmas xiyonat ekanini yaxshi tushunishgan.

Bugungi yoshlarni Behbudiyga qiziqtirish oson ish emas. Buning uchun darslikdan tashqarilash ham kerak, quruq xronologiya kifoya qilmaydi. Biz Behbudiy bolaga "o'qitish" emas, "his etish"ni o'rgatishimiz zarur. Masalan, "Agar siz Behbudiy bilan suhbatlashsangiz..." tarzida tashkil etilgan birgina metod-harakat bolani nafaqat fikrlashga, balki tarix bilan muloqotga chorlaydi.

Dars jarayonlarida "Behbudiy haftaligi" shaklida amaliy mashg'ulot tashkil qilgan edik. Har gal darsda bobomizning bitta hikmatli so'zi yoki maqolasi asosida fikr almasharkanmiz, ularni bevosita bugungi hayot bilan bog'laymiz. Masalan, "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur" degan so'zlarida alloma bizdan nimani kutayotgani jonli aks etadi. Bu ibora ta'qinida bolalar bilan axborot oqimini saralash, mustaqil qaror qabul qilish, dunyoga teran nigoh bilan qarash singari mavzularda bahs yuritimiz. Bola shaxsi ana shunday munozaralarda ochiladi, toblanadi, pishib yetiladi.

Shuningdek, qarorda qayd etilgan ko'plab tadbirlar orasida kino, teatr san'ati, insholar tanlovi, ilmiy konferensiya kabi ko'plab yo'nalishtar qamrab olingani ham ayni muddao. Bu kabi turli formatlar darsdan tashqari muhitda ham Behbudiy shaxsini o'quvchiga ma'an yaqinlashtiradi.

Agar biz Behbudiy darslarga jonli, teran va samimiy olib kirsak, har bir bola bu ismni o'z hayoti bilan bog'lay boshlaydi: "Beh bud!", ya'ni "Yaxshi bo'l, komil inson bo'l!" degan hikmatni o'z yurak prizmasidan o'tkazadi va uning qalbid shunday savollar tug'iladi: "Men qanday qilib xalqimga foyda keltira olaman?", "Jamiyatni yaxshilashda mening hissam qanday bo'lishi mumkin?" Ana shu so'roqlar, ana shu intilish Behbudiy timsolida jadid bobolar orzu-istaklari va ezgu maqsadlari bugungi avlod tafakkurida yashashda davom etayotganining yorqin ifodasi bo'ladi.

Xullas, ta'til vaqtida ham o'quvchilar bilan muloqotni to'xtatmasdan, maxsus telegram guruhi orqali Behbudiy hayoti va ijodiga oid saboqlarimizni davom ettiryapmiz. Quvonarlisi, jarayon tashab-buskorlari – o'quvchilarimning o'zlari.

Nigora YUNUSOVA,
Toshkent shahridagi
249-maktab o'qituvchisi

TADQIQOT

Jadid teatri – milliy madaniyatimiz tarixida alohida hodisa. Shu sabab o'sha davr matbuotida teatr san'ati muammolariga doir bir qancha maqolalar chop etilgan. Teatr san'ati, ijro madaniyati, aktyorlarning mahorati bilan bog'liq sahna epizodlariga ziyolilar tomonidan munosabat bildirilgan. Chunki jadidlik harakati namoyandalari uchun teatr faqat san'at maydonigina emas, ma'naviy targ'ibot vositasi ham edi. Xususan, Abdulla Avloniyning "Sanoyi nafisa haqida", Z.Bashirning "Tohir Zuhra" (shu nomdagi tatarcha pyesa haqida), "Tatar boshqird truppassi va "Nozli kuyov" haqida", G'ozii Yunusning "Jinoyatchi oilasi" (shu nomli pyesa haqida), Behbudiyning "Bizning madaniyatimiz to'siqlari" kabi maqolalarida o'zbek teatri bilan bog'liq muammolar ko'tarilgandi.

Abdulla Qodiriy ham o'zining jurnalistik faoliyatida teatr san'atiga aloqador bo'lgan "Azob boqchasida yig'i-sigi", "Eski shahar teatri havaskorlariga", "Bizda teatru ishini borishi" nomli felyetonlar e'lon qilgan. Adibning tanqidiy ruhda maqolalari o'zining salmog'i va qamrovi bilan matbuot tarixida alohida o'rin egallaydi. Ular orqali bugun bizda Turkiston teatrlariga Qodiriy nigohi bilan nazar tashlash imkoniyati mavjud.



“ESKI SHAHAR TEATRU HAVASKORLARIGA”

"Ishtirokiyun" gazetasining 1919-yil 24-oktyabr 202-sonida chop etilgan mazkur maqolaga "Abdulla Qodir" deya imzo chekilgan.

Ma'lumki, Abdulla Qodiriy inqilobning dastlabki yillarida "Eski Toshkent sinfiy ittifoqlar sho'rosi"da sarkotib vazifasida bir muddat ishlagan. O'sha davrda teatrlar repertuarini nazorat qilish shu tashkilot zimmasida bo'lgan. Binobarin, Qodiriy shu davrda turli saviyadagi asarlarni o'qigani tabiiy. Yozuvchi ushbu maqolasida "sanoyi nafisa – teatru bizim Toshkand musulmon yoshlari orasida yengil bir ish onglashilganligidan" kuyinib, "ulug'lar maktabi bo'lgan teatru safsata va noahil kishilar qo'linda bir o'yinchoq bo'lib" qolganini afsus bilan ta'kidlaydi. Teatr jadidlar nazdida ulug' "ibratgoh" hisoblangani bois diqqat-e'tibor sahna asarla-

riga qaratilgan. Teatr sahnasining tartib-qoidasi, sahna odobi, professional yondashuv mahorati, dramaning badiiy-estetik xususiyatlari hali to'la shakllanmagani bois kamchiliklar ko'zga tashlanar edi. Muallif o'z ijodiy konsepsiyasidan kelib chiqqan holda uch turdan iborat tavsiyanoma beradi:

1) Sahnaga qo'yilishi mo'ljallangan ssenariyni dastlab "Artistlar soyuzi" bilan "mutolaa yuritilib, so'ngra sahnaga qo'yulsin".

2) "Havaskorlarning o'z rollarini yaxshi onglab o'ynovlari uchun" repetitsiya jarayonida maxsus mutaxassis chaqirilishi zarur.

3) Sahnaga qo'yiladigan asar yuzasidan "Artistlar soyuzi" bilan kelisha olmagani taqdirda Eski shahar sinfiy ittifoqlar sho'rosiga murojaat qilinsin.

Muallif tomonidan olg'a surilgan talab va taklif o'z navbatida o'zbek teatr san'atining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

“BIRDAN BIR CHORA

Turkiston teatrlari

“BIZDA TEATRU ISHINING BORISHI”

Ushbu maqola Abdulla Qodiriyning dastlabki publitsistik chiqishlaridan biri bo'lib, "Ishtirokiyun" gazetasining 1919-yil 1-dekabrdagi 239-sonida "Juboy" taxallusi bilan bosilgan.

Abdulla Qodiriy drama tarixini Turkistonda "1912-yildan" boshlangan deb belgilaydi. Bu vaqtda hududda tatar truppalari faoliyat yuritgan, ammo xalq orasida ommalashib ketmagan edi. Maqola muallifi mana shu holatning sabablarini ochib berishga harakat qilgan. Turkistonda "turmushimizdan chetdaroq ruhdagi asarlar" xalq orasida keng yoyilmagani va shu bois "u darajada o'ziga jalb eta olmagani"ligiga e'tibor qaratadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari sahnaga qo'yilgandan so'ng vatanimizda teatrnig yangi hayoti boshlanadi. Qodiriy "Padarkush"ni "risola" deb ataydi. Turkistonning turli joylarida mazkur pyesaga taqlidan yozilgan sahna asarlari nihoyatda ko'payib ketadi. Muallif taqlid "madaniy millatlarning bir qonuni" bo'lsa-da, "yangilik va matbuotsizlik" va "alxusus bunday nimarsalarni tanqid qilug'a iqtidorlik munaqqidlarimiz" yo'qligidan bunday yo'sindagi asarlarni "matbuot elagidan" o'tkaza olmaymiz, deb yozadi.

Qodiriy bunday hol 1912–1917-yilgacha davom etganini qayd etadi. Endilikda teatr asarini yozish "ermak yoki havas" shakliga o'tganini ta'kidlaydi. Adib teatr repertuarining talabga javob bermasligini, artist va rejissyorlarda professionalizm yetishmasligini jiddiy ta'kid qiladi. Buning sababini "sanoyi nafisa – teatru... yoshlar orasida juda ham bir yengil anglashilgan"ida deb biladi.

Bunday munosabat shakli Toshkand yoshlari orasida ko'p uchrayotganini achinib yozadi. Endilikda teatrlarda asar yozish, hatto o'z imlosini to'g'rilab yoza olmaganlarga qolgani va "olachipor drama"lar ko'payib ketganiga ishora qiladi. Bundaylarga jiddiy tanqidiy munosabat bo'lmaganidan ular "dramaturg", "komik", "opera-to'r" bo'lib tanildi, deydi kuyinib. Mazkur maqola endigina tetapoya bo'lgan o'zbek teatr san'ati namunalari tahlil qilingan nazariy xarakterga ega.

Maqola muallifi bunday saviyasi past tomoshalar "teatni ermak va o'zlarining eskidan qolgan mazxarabozliqlari" sifatida qarashlar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Milliy teatrnig xalq orasida ta'sir doirasi bo'lishi uchun drama muallifi chetdan emas, o'zimizning "ichimizdan" chiqishi va voqealar ham "turmushning aksi" bo'lishi zarur deb hisoblaydi. Teatr necha asrlardan buyon "safsata va sihrbozlik ila



MILLAT FIDOYILARI

RO‘YXATLARDA YO‘Q EDI NOMI...

Ko‘pincha evrilishlar davrida inson taqdiri tarixning eng og‘ir sinovlarida imtihan qilinadi. O‘rtahol oilada voyaga yetgan, ayniqsa, qalbi ilm-ma‘rifatga tashna, o‘zini jamiyatga foyda keltiradigan shaxs sifatida ko‘ra boshlagan insonlar uchun bu yo‘l ham mas‘uliyatli, ham mashqaqatli kechgan.

Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan Abdukarim To‘xtaboyev hayot yo‘liga nazar tashlasak, ilmga ishtiyoqi tufayli jamiyatda yuksak obro‘-e‘tibor qozongan, ammo aynan shu ma‘rifatparvarlik yo‘lida taqdiri tahlikalarga to‘la shaxsni yaqindan tanib olamiz. Zamonasi bilan murosasiz to‘qnashgan bu shaxsiyat bosib o‘tgan qisqa, ammo zalvorli yo‘l ma‘rifat bilan boshlanib siyosiy zulm bilan tugallangan bir avlod taqdirining ayanchli hikoyati o‘laroq o‘qiladi. Bunda jadidlik ruhining oddiy xalq farzandlari orasida qanday yoyinlanganining ham guvohi bo‘lamiz.

Abdukurim To‘xtaboyev 1898-yili Naman-gan tumanida dehqon oilasida tug‘ilib, bolaligi Yakkatoy qishlog‘ida o‘tgan. U otasi bilan uzzukun dala-dasht yumushlarida band bo‘lar, mavsumi keldi deguncha paxta terimiga sho‘ng‘ib ketardi. Yosh Abdukurim haqida so‘z borar ekan, ko‘z o‘ngimizda “qo‘li ishda bo‘lsa-da, fikri-yodi kitobda” o‘spirin qiyofasi gavdalanadi. Bolakayni o‘roqdami, chopiqdami uchratmaylik, qo‘lda kitob bilangina ko‘rish mumkin edi. Unda mutolaaga mehr, o‘qib-o‘rganishga zo‘r ishtiyoq bor ediki, kundalik yumushlar bunga sira to‘sqinlik qilmas, imkon bo‘ldi deguncha kitobga tutinardi. Ilmga tashnalik uning fe‘lida, harakati, intilishlarida yaqqol bo‘y ko‘rsatib turardi.

Bungacha ham o‘g‘lining ko‘zlaridan barchasini uqib olgan ota uni, avvalo, rustuzem maktabiga beradi. Abdukurim dastlab ushbu maktabda xat-savod chiqargan bo‘lsa, keyinchalik To‘raqo‘rg‘ondagi rus maktabiga o‘qishga kirib, besh yil davomida tahsil oladi.

O‘qishga xohish-istakning kuchini ko‘ring, eng nufuzli ta‘lim maskanlaridan hisoblan-gan Namangan gimnaziyasiga qabul qili-nadi. O‘sha vaqtda har qanday yosh, ayniqsa, qishloq sharoitida o‘sgan bolalar uchun ulkan muvaffaqiyat sanalardi bu. Chunki gimnaziyalarda tahsil olish imkoniyati ozchilikka nasib etardi.

Abdukurimning ruhiy va fikriy rivojida aynan shu davr hal qiluvchi bosqich bo‘ldi. U gimnaziyada tahsil olib yurgan kezlari Munavvar qori, Avloniy, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon kabi jadid ma‘rifatparvarlari g‘oyalari bilan yaqindan tanishdi, ularning ilmiy-adabiy merosi, matbuot nashrlaridagi salmoqli chiqishlarini muntazam kuzatib borishni o‘ziga odat qildi.

Ayon, jadidlar uchun ta‘lim-tarbiya shaxsiy unib-o‘smakdan ko‘ra ko‘proq mil-lat taraqqiyisiga daxldor masala edi. Abdu-karim kun sayin ana shu ruhni o‘zlashtira borarkan, ilm o‘rganishning o‘zi bilangina kifoyalanmasdan, uni qay tarzda jamiyat



manfaatiga xizmat qildirish mumkinligini o‘ylardi. Jadidlar ta‘kidlagan “aql bilan ishlash”, “ilm bilan yashash”, “millat uchun jon kuydirish” kabi g‘oyalari uning dunyoqarashiga tobora chuqur ta‘sir o‘tkazardi. Ana shu g‘oyalar ta‘sirida u o‘z fikri, qarashi va mavqeyini anglab borar, ma‘naviy kamoloti yo‘lida jadidlar ilgari surgan tashabbuslar muhim o‘rin tutardi.

Gimnaziyani muvaffaqiyatli tugatgan Abdu-karim To‘xtaboyev uchun turg‘un jamiyatning izdan chiqqan davrida o‘z o‘rnini topish oson bo‘lmadi. Ammo inqilob boshlanib, jamiyatda yangi tuzum shakllana borgan yillarda u yuzaga kelayotgan imkoniyatlarni anglab, faol harakatga kirishdi. Qahramonimiz turli davlat muassasalarida ishlab, yangi hayotga o‘z hissasini qo‘shishga intildi.

Yangi hokimiyatni barpo etish, idoralar va maorif tizimini tashkil qilish jarayonida savodli, tashabbuskor kadrlar zarur edi. Abdukurim To‘xtaboyev ana shunday mahalliy ziyolilardan biri sifatida faoliyat yuritir ekan, 1918–1923-yillar davomida ma‘muriy ishlarda, ta‘lim va madaniyat sohalaridagi islohotlarda ham faol qatnashdi. U o‘z sa‘y-harakatlari orqali milliy kadrlarni tarbiyalash, ularni mas‘ul vazifalarga imkon qadar tortish va shu orqali milliy davlatchilikni tiklash borasida fikr-mulohazalarini dangal aytishdan aslo cho‘chimas edi. Ana shu qat‘iyati bois u ham sovet ma‘murlarining qora ro‘yxatiga tirkaladi.

1920-yillar o‘rtalaridan boshlab umumiy siyosiy muhit o‘zgarib bordi: ichki tortishuvlar, mahalliy va markaziy organlar o‘rtasida ishonchsizlik kuchaydi. Shaxsga nisbatan ishonch bildirish yoki unga shubha bilan qarash mezonlari almasldi: insonning shaxsiy salohiyati, bilim darajasi yoki faoliyati emas, uning sinfiy kelib chiqishi, qarindoshlari kim ekani, o‘tmishda qanday muhitda yashagani kabi omillar birinchi o‘ringa chiqdi. Endi shaxsni baholashda uning nash-nasabi, mulkdorlar bilan qanchalik aloqasi borligi, hatto o‘zi o‘qigan maktab yoki o‘qituvchilarining siyosiy qarashlari ham ahamiyat kasb eta boshladi.

Shu tufayli ko‘plab faol va savodli ziyolilarga, jumladan, Abdukurim To‘xtaboyevga nisbatan

ham munosabat o‘zgardi. Endi u ochiqcha ayblanmasa-da, “siyosiy jihatdan ishonchsiz” shaxsga aylandi, unga o‘gay ko‘z bilan qaray boshlashdi. Otasi va yaqin qarindoshlari “quloq” sifatida ro‘yxatga olingani, mulkining musodara qilinishi unga nisbatan munosabatni keskinlashtirdi. Ilgarigi ishonchdan asar ham yo‘q, ular ko‘z o‘ngida “millatchilikka moyil” shaxs turardi.

1928-yilga kelib bu munosabat rasmiy tus oldi. Avvaliga, u partiya-dan chiqarildi. Bu keskin burilish unga nisbatan bir necha yil davomida yig‘ilib borgan shubhalarning ochiq yuzaga chiqishi edi.

1930-yillar boshlari. Abdukurim To‘xtaboyev Yakkatoy qishlog‘ida joylashgan paxta tay-yorlash punktida ishlayotgan kezlari. Qah-ramonimiz paxtachilik sohasida uquvli, qobiliyatli va tajribali xodim sifatida ishonch qozongach, 1934-yilda Toshkentdagi maxsus kurslarga o‘qishga yuboriladi. Bu kabi o‘quv kurslari o‘sha davrda asosan kelajakda mas‘ul vazifalarga tayyorlanadigan kadrlar uchun mo‘ljallangan edi. Abdukurim To‘xtaboyevning bu ro‘yxatga kiritilishi, avvalo, uning sohaviy bilim va ko‘nikmalari, shu bilan birga, mahalliy darajadagi mavqeyini ham tasdiqlardi.

Biroq 1937-yilning kuzida vaziyat kutilma-gan tomonga burilib, kurs tugay-tugay degan-da – 10-oktyabr kuni Abdukurim To‘xtaboyev va yana bir necha kursant vaqtinchalik ish yuzasidan Kosonsoy tumaniga yuboriladi. Rejaga ko‘ra, ular bir necha haftadan so‘ng Toshkentga qaytib ta‘limni yakunlashlari kerak edi. Biroq reja amalga oshmaydi: oradan to‘rt kun o‘tibiq, 1937-yil 14-oktyabrda barchasi hibsga olinadi.

Abdukurim To‘xtaboyev hibsga olinishida ayanchli tafsilotlar keladi. 1937-yil 14-avgustda Yakkatoy qishlog‘idagi paxta tayyorlash punktida “Qizil O‘zbekiston” gazetasini varaqlab, so‘ng suhbatdoshlariga qarata shunday degani iddao qilinadi: “Sovet hokimiyati o‘zbek ziyolilarining eng yaxshi vakillarini qamoqqa olib mustamlakachilik siyosatini olib bormoqda, bu jihatdan podshohlik hukumati davridagidan ham yomon

holat yuz bermoqda”. Bu kabi fikrlarida uning ziyolilar taqdiridan xavotiri yaqqol sezilib turadi. Ayni paytda, bunday mulohaza 1937-yildagi siyosiy muhitda davlatga qarshi chiqish sifatida baholanishi muqarrar edi.

Yana shunday tafsilot keladiki, tintuv paytida Abdukurim To‘xtaboyev uyidan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani topiladi. Bu kitob u paytda rasman taqiqlanmagan bo‘lsa-da, adibning “millatchi” sifatida qoralangani tufayli kitobni saqlashning o‘zi “ayb” deb baholanishi mumkin edi. Boshqacha ayt-sak, kitob tergovchilar ko‘z o‘ngida uni “hali ham o‘tmishga yopishib olgan millatchi”ga aylantirishga yetarli dalil edi. Qahramonimiz taqdiri aynan shu nuqtadan yanada og‘irlasha boshladi.

Abdukurim To‘xtaboyev Ichki ishlar xalq komissarligining Farg‘ona viloyati Uychi tumani bo‘yicha vakili tomonidan hech qanday dalilsiz hibsga olinadi va uning keyingi hayoti shunday tushunarsiz, asossiz ayblovlar ichida o‘tadi. Shikoyatlaridan birida u shunday yozadi: “Meni tintuvsiz, hech qanday aybsiz qamoqqa olishdi. Uch oy Farg‘onada, keyin Namanganda, so‘ngra Toshkentda ushlab turishdi. So‘ngra Yaroslavl oblastiga etap qilishdi. Formulyar to‘ldirish paytidagina men sirdan (ya‘ni, men qatnashmagan holda) 10 yilga hukm qilinganimni bildim”.

Bu uning 1941-yil 1-may kuni Volga–Moskva kanali qurilishidagi mahbuslar lageridan SSSR Ichki ishlar xalq komissarligiga yo‘llayotgan beshinchi shikoyati edi.

Qahramonimizning rafiqasi Donoxon To‘xtaboyeva ham turmush o‘trog‘ining nohaq ayblanganini bildirib, rasmiy idoralarga ko‘p bora ariza bilan chiqadi. U har murojaatida umr yo‘ldoshi taqdiridan qayg‘urar, adolat talab qilar, bu holatning oilasi ahvoliga ta‘sir haqida kuyunib yozardi: “Farzandlarim ta‘limdan mahrum. Hayotimiz tubdan buzuldi. Iltimos, erimning ishini qayta ko‘rib chiqinglar!” Adolat izlash, bir inson taqdirini saqlab qolish istagi mujassam bu murojaatlar, taassufki, har gal bejavob qolaverdi.

Abdukurim To‘xtaboyevga qo‘yilgan ayb-lovlar orasida aqlga sig‘maydigan, eshitgan quloqqa erish tuyuladigan holatlar ham yo‘q emasdi. Masalan, u Fayzulla Xo‘jayev haqida ijobiy fikr bildirgan, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy kabi millat ziyolilarini hurmat bilan tilga olgani uchun ham ayblangan va bu kabi bayonotlar rasmiy hujjatlarga jinoiy dalil sifatida tikilgan.

Oradan yigirma yildan ortiq vaqt o‘tgach-gina, bu nohaqlik tan olinadi. 1958-yil 28-fevralda Abdukurim To‘xtaboyev rasman oqlanadi: Sovet organlari uning aybsiz ekanini e‘tirof etadi, unga nisbatan o‘tkazilgan tergov va berilgan jazo asossiz deb topiladi. Ammo afsuski, ushbu qaror qabul qilingan paytda uning o‘zi hayot bo‘lgan-bo‘lmagani noma‘lum.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor


orqali ko‘rsatadi, ya‘ni ularning millatga bergan bahosini achchiq kesatiq orqali ifodalaydi. Madaniyat niqobi ostida milliy-diniy tuyg‘ularning poymol etilishi, avom nazdida “madaniy” bo‘lib ko‘rinish orqasida asl mohiyatdan yiroqlashib, o‘zligidan ayro tushishga ishora qiladi. Maqolada “madaniy” niqobi orqasidagi soxta “artist”larning qiyofasi fosh qilinadi.

Maqolaning “Azob boqchasida yig‘i-sig‘i kecha” deb nomlanishi ham bejiz emas. Artistlarning mas‘uliyatsizligi oqibatida tomoshabin yo‘qligi va o‘rinlar bo‘shligi bois “xilvatxonaga” qurbaqalar kirib kelganligi aytiladi. Qodiriy qurbaqalarni “madaniy maxluq” deb, tomoshaga “kishi” yo‘qligidan bilet olib kirganligini pisanda qiladi. Hikoyachi teatr “muassasalariga va o‘zbek “orsizlar” to‘dasiga margi majofat” tilaydi. Muallif “Rohat boqchasi” ma‘nosiga qarama-qarshi “Azob boqchasi” so‘zini qo‘llab, tomoshabin rohatlanish o‘rniga azoblanib, kechalari “g‘arib tushlar” ko‘rib chiqayotganini mubolag‘a qilib, achchiq kulgi vositasida kamchiliklarni ochib beradi.

Teatrni milliy qayg‘u uchun malham o‘rnida ko‘rgan jadidlar sahna asarlari yaratishga kirishadi. Lekin sahnalashtirilgan dramalarning barchasi ham talab doirasida emasligi va aktyorlarning ham mahorat bobida nochorligi odamlarni teatrdan uzoqlashtirishi mumkin edi. Bu kamchiliklar va ularga sabab bo‘lganlar Abdulla Qodiriyning tanqid qamchisi bilan beayov savalanadi.

Sanobar TO‘LAGANOVA,
filologiya fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Bobojon Otajonov – 1880-yili Xiva shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. 1917-yilgacha ishchi, dehqon, mardikor va tikuvchi bo‘lib ishlagan. “Yosh xivaliklar” partiyasi a‘zosi bo‘lgan. 1917–1924-yillari bir qator mas‘ul lavozimlarni egallagan. “Qo‘shchi” soyuzining raisi, 1920-yili Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) xalq komissarlar soveti-niing raisi lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. Xorazm-dagi ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar uning faoliyati bilan bog‘liq. 1924-yildan Xorazm Xalq Sovet Respublikasining Moskvadagi muxtor vakili, 1925-yil 7-martdan O‘zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissari kollegiya a‘zosi bo‘lib xizmat qilgan.

SSSR Oliy sudi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishi qarori bilan Bobojon Otajonov otuvga hukm etilgan. Hukm o‘sha kuni ijro qilingan.

Qodirxo‘ja Vahobov – 1898-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Eski shaharda yangi usuldagi jadid maktabida ta‘lim olgan. 1931-yildan partiya a‘zosi bo‘lgan. Besh oylik savodsizlikni tugatish kursini bitirgan. 1923–1924 yillarda to‘rt oylik aloqa-telegraf kursida ham tahsil olgan. Keyinroq o‘qituvchilik qilgan. 1925–1927-yillarda Toshkentda kooperativ mudiri, 1928–1931-yillarda fabrika ishchisi, keyinroq fabrika direktori o‘rinbosari, poyabzal fabrikasi ishchilar ta‘minoti bo‘yicha direktor o‘rinbosari, 1933-yilda direktor, 1936-yil 5-dekabr-dan Tosh-kent shahar Stalin rayoni ijroiya komiteti raisi lavozimlarida ishlagan.

Rus, tatar va qozoq tillarini mukammal bilgan. 1938-yil 14-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida 15 nafar mahbus ishi ko‘rib chiqilgan va qayta tergov qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Ulardan biri Qodirxo‘ja Vahobov bo‘lgan, yurtdoshimizning keyingi taqdiri noma‘lum.

Ahmadjon Abdusaidov (Hamdiy) – 1878-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Buxorodagi “Jadid-lik harakati” va “Yosh buxoroliklar” firqasi namo-yandalaridan biri, davlat va jamoat arbobi bo‘lgan. 1911–1913-yillarda Istanbulda tahsil olgan. Amirlik tuzumini ag‘darishda faol qatnashgan. 1920-yilda Buxoro revkom raisi, keyinroq Butunbuxoro Mar-kaziy Ijroiya Qo‘mitasi mas‘ul kotibi bo‘lgan.

Ahmadjon Abdusaidov siyosiy faoliyatini to‘xtatib, maktabda o‘qituvchilik qilgan hamda badiiy ijod va publitsistika bilan jiddiy shug‘ullangan. Hamdiy taxallusi ostida she‘rlar bitgan. 1937-yil 9-oktyabrda sovet rejimi tomonidan Toshkentda qamoqqa olinib, 14-oktyabrda Bo‘zsuv sohilidagi jarlikda 59 yoshida otib tashlangan. Qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshimiz Ahmadjon Abdusaidov o‘limidan so‘ng 1965-yilda oqlangan.

Vois Abdulvohidovich Qoriyev (Oltoy) – 1903-yili Toshkentda tavallud topgan. U O‘zbekiston SSRda faoliyat ko‘rsatgan milliy rahbarlardan biri Bois Qoriyev (1897–1938)ning ukasi.

Vois Qoriyev Munavvar qori Abdurashidxonov-niing maktabida tahsil olgan. “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti faoliyatida qatnashgan. Fitratning yaqin shogirdlaridan biri bo‘lgan. Xorazmdagi maktab-larda o‘qituvchilik ham qilgan.

Moskvada tahsil olib, Samarqandda O‘zbekis-ton SSR Maorif xalq komissariatida Bosh ijtimoiy tarbiya bo‘limi mudiri va Davlat ilmiy muassasasining (GUS) raisi bo‘lgan. Shuningdek, “Qizil qalam” uyushmasi rahbari va 1930-yili “Yosh leninchi” gazetasi muharriri bo‘lib ishlagan.

1933-yili 5-aprelda hibsga olingan. 1934-yili Moskvada bo‘lgan sud jarayonida o‘lim jazosiga, keyinchalik jazo o‘zgartirilib, 10 yilga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan.

Muddatidan oldin ozod qilingan Vois Qoriyevni 1941-yil yana qamoqqa olishadi. Uni Vorkuta-ga surgun qilishadi. Qahramonimiz 1946-yili 24-dekabrda surgundan uyiga qaytgan. Sovet ma‘murlariga uning ma‘rifatparvarlik ruhidagi sa‘y-harakatlari xush kelmaydi. Shu bois Vois Qoriyevni 1948-yili yana takror qamoqqa olishadi va bu safar u 10 yil muddatga qamaladi.

Keyinroq yana muddatidan oldin 1953-yili 14-martda ozod qilinadi. Shundan so‘ng (1956–1957) “Turon” klubida, keyinroq esa O‘zbekiston FA Til va adabiyot institutida (1959–1977) ishlaydi. She‘riy to‘plamlari, xotiralari e‘lon qilingan. Filo-logiya fanlari nomzodi Vois Qoriyev 1975-yilda “O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan mada-niyat xodimi” sifatida taqdirlangan. U 74 yoshida Toshkent shahrida 1977-yilda vafot etgan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).

TANQID YO‘LIDIR”

Abdulla Qodiriy nigohida

zaharlangan” xalqqa adabiy maktab bo‘lib xizmat qilmo‘gi kerak. Muallif dramaning janr imkoniyatlarini bilmaslik oqibatida biron tuzuk asar ko‘rmaganligini qayd etar ekan, bu hol “sahna uchun xiyonat” ekanligini ta‘kidlaydi.

Abdulla Qodiriy teatr san‘atining rivojla-nishida tanqidchilikning o‘rni muhim ekanini aytar ekan, bunda faqat artistlar ijrosiga to‘xtalib qolmasdan, balki ssenariylarni ham atroflicha tahlil qilishni taklif etadi. Zero, “teatr va dramaturgiyani yaxshilash uchun birdan bir chora bo‘lsa, ul ham tanqid yo‘lidir”, deydi. Yozilayotgan sahna asarlarining har tomonlama barkamol bo‘lishi, tomoshabin didi va saviyasining yuksalishiga xizmat qilishi, buning uchun dramaturglar asar kompozitsiyasini, personajlar sajiyasini pishiq-puxta ishlashini talab qiladi. Muallif “qahramonning so‘z va ishi xarakteriga nomuvofiq, uning ichki siri ochilmay” qolayotganini keskin tanqid qiladi. Abdulla Qodiriy teatr san‘atini shakllantirishda millat manfaatini birlamchi ahamiyatga ega bo‘lishi lozimligini urg‘ulaydi. O‘z davrida bildirilgan bu fikrlar Qodiriyning teatr san‘ati va adabiyot nazariyasini yaxshi biluvchi o‘tkir nigohli munaqqid ekanidan dalolat beradi.

Muallif “Temir to‘dasi” truppasi tomonidan sahnalashtirilgan “Jadid – qadim” dramasini tanqid qilarkan, voqealar butunlay hayot haqiqatiga zid ekanini misollar orqali ochib beradi. U bunday asarlarning uzoq vaqt yashay olishi qiyinligini ta‘kidlab, G‘ozi Yunusning maqolasi-ga e‘tibor qaratadi. G‘ozi Yunus va Qodiriy orasida matbuot orqali juda katta bahs-munozara bo‘lib o‘tgan tarixiy manbalardan ma‘lum. Shunisi e‘tiborga loyiqlik, har ikkala muallif ham millat manfaatini shaxsiy munosabatlardan afzal bilgan. Ularning yozishmalarida milliy qayg‘u masalasi birlamchi ahamiyat kasb etadi.

“AZOB BOQCHASIDA YIG‘I-SIG‘I KECHASI”

“Qizil bayroq” gazetasining 1922-yil 28-aprel 168-sonida “Juljunboy Dumbulboy o‘g‘il” imzosi bilan e‘lon qilingan maqolada “Rohat boqchasi”da o‘tkazilgan kechada tomoshabinlarning ozligi, aholining madaniy darajasi pastligi, jumladan, artistlarning tajribasizligi, repertuarning noto‘g‘ri tanlanishi, rollar taqsimotidagi kamchiliklar jiddiy tanqid qilingan. Rohat boqchasi qadim Toshkentning hozirgi sirk maydoniga yaqin joylashgan bog‘ bo‘lib, unda turli ko‘ngilochar kechalar tashkil

etilgan. Muallif shunday yozadi: “Chunki ko‘bdan beri bunday ziqiz kechalardan chet-da – nuqul qayg‘u kechalari, kulfat vodiylarida kezib, buningdek kechalarga mushtoq edim – tashna edim”. “Kichik feleto‘n” deb nomlangan maqolaning tili kinoya, qochirilmaga boyligi bilan e‘tiborni tortadi. Roviylar kulfat vodiylarida kezib” horiganidan shikoyat qilar ekan, Turkistonning ahvoliga ishora qiladi. Abdulla Qodiriyning kichik asarlarida voqelik muallif tilidan bayon qilinadi. Bayon qiluvchi muallif bilan bir sathda, teng pozitsiyada bo‘lgani bois o‘quvchining o‘zi ham bevosita voqelikning guvohiga aylanadi. Muallif voqelikka munosabatini ba‘zi o‘rinlarda ochiqlaydi, ba‘zan esa oshkor qilmaydi. “Madaniyat boqchasining madaniy yigitlari o‘z yonlarida bitta-bitta topilsa “tutash”, topilmasa “baba” yetaklab yurganlarini ko‘rib biz afsus qila boshladig, chunki biz ham ovuldag‘i chechalardan ikkitasini olib kelgan bo‘lsa-q, yetaklashib yurgan bo‘lar edik”. Muallif o‘zining kiyim-boshini “vahshiylarcha” bo‘lmasa ham “dalatob” ekanidan mulzamligini, millatning sog‘lom yigitlari “madaniy yigit” bo‘lish niyatida “baba” yetaklab yurganini kinoya vositasida ochib beradi. Qizil inqilobchilarning yerli aholiga nisbatan munosabatini “vahshiylarcha” so‘zi



Boshlanishi 1-sahifada.

Odatda jahon chempionatiga chiqishni maqsad qilgan har qanday mamlakat futbol mutasaddilari favqulodda hodisalarga hamisha tayyor turishi lozim. Shuni unutmaslik shartki, ba'zan katta futbolda maydacha yda narsalar masalani hal qiladi.

Endi futbol islohoti haqida ikki og'iz gap. Xorij tajribasini o'zlashtirdik. Oliy ligani superliga deb atadik. Ichki chempionatimizda qatnashadigan klublar sonini gohida ko'paytirdik, ba'zan kamaytirdik. Stadionlar ta'mirlandi. Toshkentda, Farg'onada va boshqa hududlarda bir nechta yangi o'yingohlar qurildi. Futbol akademiyalari tashkil qilindi. Superliga va pro-liga jamoalarining moddiy sharoitini yaxshilashga ham erishdik. Xalqaro arenalarda hakamlarimiz mahorati oshirildi. Futbolchilarning maoshlari ancha ko'tarildi. Klublarga xorijiy futbolchi hamda murabbiylarni jalb qilish rivojlanishning asosiy bosqichi bo'lishini anglab yetdik. Bu borada yaranagan, yaramagan xorijliklar pul uchun kelib-ketaverdi. "Bunyodkor"ga kelgan braziliyalik murabbiyga dunyodagi eng katta maosh belgilandi. Oldi, ketdi. Germaniya, Angliya, Gollandiya, Rossiya, Braziliyadan kelgan murabbiylar jahon chempionati yo'lida bir qadam ham olg'a bosolmadi. Gazeta va jurnallar, televideniye, ijtimoiy tarmoqda ichki chempionatlarimizdagi kelishilgan o'yinlar, g'irrom hakamlar, boy berilgan xalqaro musobaqalar to'g'risidagi tanqidlar ko'paygandan ko'paydi. Ularga munosabatdan goh qoniqlik, gohida hafsalamiz pir bo'ldi. Xullas, barcha sport turlari kabi futbolimiz ham og'ir bemor edi.

Biz "oyoq o'yini"ga katta mablag'ni oqilona sarflashni o'rganayotgan paytimizda yoki Mirjalol Qosimovning mahoratiga, obro'siga ishonib terma jamoaga bosh murabbiy sifatida olib kelgunimizga qadar Osiyo qit'asiga Avstraliya degan mamlakatning bo'ychan va zabardast futbolchilari kirib keldi. Asosan Yevropa klublarida o'ynaydigan futbolchilar termasi bizning qit'amiz uchun beriladigan



ikki yarimta, uchta va uch yarimta yo'llanmaning bittasiga yaqqol da'vogar edi. Boshqa tomonda Yaponiya, Janubiy Koreya, Eron va arab jamoalari g'o'r rejalarimizni chippakka chiqaraverdi. Chunki bizda strategik va taktik qat'iy "yo'l xaritasi" yo'q edi.

Chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, milliy terma jamoamizning barcha futbolchilari – Abduqahhor Ma'rufaliyevdan tortib Jasur Hasanovgacha saralash musobaqalarida katta bosim ostida maydonga tushishgan. Tugal sharoit yaratilmagani, moliyaviy inqiroz, murabbiylar qo'nimsizligi, sansolarlik, mahalliychilik, tanish-bilishchilik, rahbarlarning kayfiyatiga qarab o'ynash, ba'zi xorijiy futbol jamoalaridagi "oldi-berdi" illatlari, hakamlarning noxolisligi, ichki muhitning buzilishi har bir futbolchimizning ruhiy, ma'naviy hamda jismoniy holatiga jiddiy zarba berib kelgani sir emas.

Keling, terma jamoamiz 2026-yil

AQSh, Kanada va Meksikada bo'lib o'tadigan jahon chempionatida qatnashish huquqini qo'lga kiritgan ekan, hadeb muammolarni sanayvermasdan yutuqlarimizga ham nazar tashlaylik. Bu yutuqlar, albatta, so'nggi yillardagi qat'iy va oqilona islohot samarasidir.

Birinchidan, hukumat jismoniy tarbiya va sportga jiddiy e'tibor qaratishi bilan birga to'g'ri talabni ham qo'ya bildi. Sharoit yaratildi, adolat o'rnatildi. Shaxsan Prezident Shavkat Mirziyoyev futbol bilan bog'liq bir qancha qaror va farmonlarni imzoladi. Futbol tepasiga ishonchli mutaxassislarni yig'di. Undan sal oldinroq terma jamoamizning Mirjalol Qosimov atrofida shakllantirilganligi terma jamoamizning milliylashuviga sabab bo'lgan edi. Mirjalol maydonda ham, murabbiy sifatida ham juda katta ishlarni amalga oshirgan yagona futbolchi sanaladi.

Ikkinchidan, bolalar va o'smirlar futboliga e'tibor kuchaytirilishi,

joylarda futbol akademiyalari tashkil qilinishi, murabbiylar mahoratini oshirish amaliyoti va xorijiy tajriba ish bera boshladi. Shuningdek, xalqaro arenalarda tajriba orttirgan hakamimiz Ravshan Ermatovning futbolimizga mas'ullardan biri etib tayinlanishi FIFA darajasida e'tibor topishimizga xizmat qildi. Natijada to'pteparlarimiz Osiyo va jahon chempionatlarida ishonch bilan qatnasha boshladi.

Uchinchidan, ilgari Maksim Shatskix, Mirjalol Qosimov, Vitaliy Denisov, Server Jeparov, Odil Ahmedov kabi barmoq bilan sanoqli yigitlarimiz xorijiy klublar safida o'ynagan bo'lsa, bugun Eldor Shomurodov, Jaloliddin Masharipov, Abbosbek Fayzullayev, Abduqodir Husanov, Otabek Shukurov, Aziz Turg'unboyev, Oston O'runov, O'tkir Yusupov, Hojimat Erkinov, Rustam Ashurmatov singari o'nlab futbolchilarimiz jahonning top klublarida to'p tepishyapti. Bu o'z-o'zidan ularning ortida turgan

yoshlarimizda havas va ishtiyoq uyg'otib, futbolimizda sog'lom raqobatni yuzaga keltiryapti. Eng muhimi, bu gal xorijdan murabbiy tanlashda adashmadik. Bugungi terma jamoamizning asosiy o'zagi Srechko Katanets murabbiyligida shakllantirilib, Timur Kapadze uning an'anasini davom ettirgan holda muvaffaqiyat darvozasiga yo'l topdi.

To'rtinchidan, islohot samarasi o'laroq qayta jonlangan jozibali futbol huvillagan stadionlarga ishqibozlarni qaytardi. Futbol rosmnana milliy o'yinga aylandi. Ashaddiy ishqibozlar klublari paydo bo'ldi. Termamizning xorij maydonlaridagi ko'tarinki o'yinlariga aynan ana shu fanatlarning qo'llab-quvvatlashi qanot bo'ldi desak adashmaymiz.

Ma'lumki, futbol olamida rag'bat eng katta va muhim motivatsiya sanaladi. Osiyo chempionati bilan bog'liq "qor o'yini" ni eslang. Jamoamiz og'ir va muhim pallada g'alabani ilib ketgan edi. Prezidentimiz ularning hammasini mehnatlariga va ko'rsatgan jasoratlariga yarasha mukofotladi. 2024-yilda bo'lib o'tgan jahon Olimpiadasi yo'llanmasini qo'lga kiritgan 23 yoshlilarimizga ham alohida hurmat ko'rsatildi. Milliy jamoamizga kechagina berilgan davlat mukofotlari-yu rag'batlarning salmog'iga qarang! Shaxsan Prezidentning qo'lidan mukofot olish, uning e'tiborini qozonish har bir sportchining orzusi. Endigina 21 yoshga qadam qo'ygan Abduqodir Husanov "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni bilan taqdirlandi. Bunday e'tirof-u rag'bat futbolchi hamda murabbiylarimizni, qolaversa, ishqibozlarni ham ilhomlantirishi turgan gap.

Endi bizning futbolchilarimizning ham, terma jamoalarimizning ham yo'rig'i boshqacha bo'ladi. Futbolimiz O'zbekiston va millat nomini dunyoga yoyadi. Yurtimizga qiziqish va e'tibor ortadi. Millionlar o'yini Markaziy Osiyodagi millionlab qar-doshlarni yanada birlashtiradi.

Terma jamoamizga jahon chempionatida ham zafarli yurishlar tilab qolamiz.

Normurod MUSOMOV,
jurnalist

TARMOQLARDA NIMA GAP?



TAKLIF

Qozog'istonlik futbol sharhlovchisining Toshkentda bo'lib o'tgan o'yindan tayyorlagan lavhasini ko'rdim. You Tubedagi lavhani do'stlarimdan birlari yuboribdi.

Qarang, qo'shni davlat sharhlovchisi o'z hisobidan Toshkentga kelgan, o'zi chipta olib stadiongga kirgan va o'z xohishi bilan o'yinni qozog'istonlik muxlislar e'tiboriga havola qilindi. Qoyil qoldim.

Lavhani ko'rib, miyamga bir fikr keldi. Kelasi yili bo'ladi Jahon chempionatiga o'zbekistonlik muxlislar borishi aniq. Mana shu

tarkibga qozog'istonlik o'sha sharhlovchi ham kiritilsa foydasi tegsa tegadiki, ammo zarari tegmaydi. Iloji bo'lsa, qo'shnilarimiz – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistondan bir emas, ikki nafardan sharhlovchini olib ketsak, ular bizga muxlislik qilish bilan birga o'z kanallari orqali jamoamiz o'yinlarini yoritishardi (Bizning hisobdan muzqaymoq yeb kelishsa, bir umr eslab yurishardi, deyman-da).

Menimcha, bu taklifim mintaqa xalqlari do'stligi mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi.

Sharofiddin TO'LAGANOV
Facebook

BUGUNNING SHE'RI

Muhammadali G'AFFOROV

IFTIXOR

Shodlanib ketasan shunday chog'larda,
Vujudingga sig'may jo'shadi ruhing.
"O'zbekiston!" degan hayqiriqlardan
Ko'klarga tutashib ketar shukuhing!

Mardi maydon derlar, jonin hovuchlab,
Ashaddiy muxlisning titrar yuragi.
Bu axir bir yigit umricha armon,
Bu axir bir butun xalqning tilagi.

Raqibga hurmat-ku o'zbekka shior,
Ayniqsa, u bugun sanalar mehmon.
Ammo hisob-kitob degan gap ham bor,
Ajralmas hisobli do'stlar hech qachon.

Otingdan aylanay, Azizbek og'am,
Uchgandayin bo'ldi zambarakdan to'p.
Dog'da qoldi mohir darvozabon ham,
"Bunyodkor"ni quchdi dolg'a, taloto'p!

Yana gol!
Yash-shavor!
Yashasin Eldor!
Maydonni guvlatdin zarba tovushi.
Ortingda Surxon bor,
Ortingda el bor,
Raqiblar titrasin qoni uvishib.



Shiddati so'nmagay aslo bu yurtning,
Bir o'g'li – o'n devni yenggan bahodir.
Nariroq yugurgin, beriroq yurgin,
Yelkalab qolmasin alp Abduqodir.

Zaxira jonlanar, otlanar Igor,
Ijobat aylaydi shoirning zorin.
Yerga tushmasidan muallaq koptok,
Raqib darvozaga kirmoqda yorib.

Oh, qanday huzurbaxsh
Kuzatmoq shodon –
Yulduzlar sochilgan yashnoq osmonni!
Bir bag'rimga bosay, yo'l ber, qadrdon,
Vatanim yosboni – darvozabonni!

Do'stlarim, koptokdek aylanarkan yer,
Alpomishlar tezlab g'irotlarini
"Hello, Amerika!
O'zbek keldi!" der,
Kutib ol Beruniy avlodlarini!



ELCHI YARASHTIRADI...

Tilimizda odamlar bilan tez chiqishib ketadigan, kirishimli insonlarga nisbatan "el bo'lmoq" iborasi ishlatiladi. Undagi "el" so'zi qanday ma'noni anglatishi haqida o'ylab ko'rganmisiz?

Men bu so'zni xalq ma'nosidagi "el"ning aynan o'zi bo'lsa kerak deb yurardim. Mahmud Koshg'ariy "Devon"ida "el" so'zining bir qancha ma'nolari keltirilib, ular orasida "Ikki shoh orasidagi kelishuv, yarashuv" izohi e'tiborimni tordirdi. Demak, O'zbek

tilining izohli lug'atida "bir suveren davlatning boshqa bir suveren davlatdagi diplomatik vakillarining eng katta martabasi, unvoni va shu unvonga ega bo'lgan shaxs; shoh tomonidan biror topshiriq bilan yuborilgan kishi" deya izohlangan "elchi" so'zining o'zagi, katta ehtimol bilan aynan mana shu – "kelishuv va yarashuv" ma'nosidagi "el"dir.

Haqiqatan ham, o'ylab qarasa, "odamlarga el bo'lish" – ular bilan kelishib ketishni bildiradi.

Shavkat Rahmatullayevning "O'z-

bek tilining etimologik lug'ati"ga ko'ra esa, "elchi" so'zi "qadimgi turkiy tilda "el" otining "davlat" ma'nosidan -chi qo'shimchasi bilan yasalgan: el+chi=elchi.

Albatta, "el" so'zining "davlat" ma'nosini ham, keng tarqalgan "xalq" ma'nosini ham inkor etib bo'lmaydi. Chunki "el bo'ldi" degani – "xalqqa qo'shildi" degani hamdir.

Qaysi ma'noni olmang, bu – ona tilimizning qanchalar boy va jozibador ekaniga dalil bo'laveradi.

Elmurod NISHONOV

TILBILIM



Jadid

Muassislar:



**O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI**



**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI**



**MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI**



**"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI**

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Dilmurod Do'stbekov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 655

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 942

Lotin yozuvida – 11 713

Media kuzatuvchilar – 44 995

Buyurtma: G – 640.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz